2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON


Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 191 (1790), 2026-yil 16-sentabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – KOREYA: HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH VA YANGI QO‘SHMA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN KENG IMKONIYATLAR OCHILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida 15-sentabr kuni Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Cho Chjon Shik, Bosh vazir Xan Son Suk, Koreyaning yirik kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari hamda ushbu mamlakatda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan uchrashdi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari O‘zbekiston – Koreya biznes forumining ochilishida nutq so‘zladi.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dastlab Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Cho Chjon Shik bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Koreya alohida strategik sheriklik munosabatlarini ilgari surishda ikki mamlakat parlamentlari muhim o‘rin tutayotgani ta’kidlandi.

Parlamentlararo “do‘stlik guruhlari” faol ish olib bormoqda, parlament delegatsiyalarining muntazam tashriflari amalga oshirilmoqda, qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo‘mitalari o‘rtasida samarali tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Milliy Assambleya va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkala palatasida “Elektron parlament” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Oliy darajada erishilgan, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarning amalga oshirilishi ustidan parlament monitoringini ta’minlash maqsadida o‘zaro hamkorlik mexanizmini yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida 2027-yilda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 35 yilligi munosabati bilan “parlament diplomatiyasi” yo‘nalishida bir qator tadbirlar o‘tkazishga kelishib olindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Seul shahridagi o‘ziga ajratilgan qarorgohda Koreya Respublikasi Bosh vaziri Xan Son Sukni qabul qildi.

Alohida strategik sheriklik munosabatlarini savdo-iqtisodiyot, investitsiyalar, texnologiyalar, transport-logistika sohalarida yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Innovatsion-texnologik hamkorlikni chuqurlashtirishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Savdo, moliya va investitsiya, raqamli iqtisodiyot hamda kiberxavfsizlik sohalarida, Koreyaning ilg‘or texnologiyalari va O‘zbekistonning xomashyo bazasidan foydalangan holda muhim minerallarni qayta ishlash borasida, shuningdek, transport va temir yo‘l infratuzilmasi hamda hududlararo aloqalar yo‘nalishlarida sheriklik istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Bosh vaziri Xan Son Suk qo‘shma biznes-forumning ochilishida ishtirok etdilar.

Tadbirda ikki mamlakat davlat tuzilmalari va ishbilarmon doiralarining 300 nafardan ziyod vakili, jumladan, yetakchi moliya institutlari, yirik sanoat korxonalari va savdo kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi.

Xususan, Koreya tomonidan “Lotte Chemical”, “Hyundai Motor Group”, “Samsung C&T”, “CJ Group”, “Shinhan Financial Group”, “Hyundai Rotem”, “KIND”, “BOMI”, “Kia Corporation”, “Sampyo Group”, “Hansae Mobility” kabi yirik kompaniyalar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z so‘zida Koreya O‘zbekistonning vaqt sinovidan o‘tgan do‘sti va alohida strategik sherigi ekanini, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik esa O‘zbekiston — Koreya ko‘p qirrali aloqalarining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil etishini ta’kidladi.

Yetakchi koreys kompaniyalarining O‘zbekistonda samarali faoliyat yuritib, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shayotgani alohida qayd etildi.

Bugun O‘zbekiston industrial va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Shu bois, o‘zaro savdo hajmini oshirish, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi tomonidan O‘zbekistonning resurs salohiyati, Koreyaning ilg‘or texnologiyalari va ikki mamlakat kompaniyalarining investitsiyaviy imkoniyatlarini birlashtirish orqali yangi iqtisodiy o‘sish nuqtalarini yaratish taklif etildi.

Prezidentimiz kelgusida iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Xususan, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va ishlab chiqarishning to‘liq zanjirlarini shakllantirish, energetika va “yashil iqtisodiyot”, transport va zamonaviy infratuzilma, raqamlashtirish hamda sun’iy intellekt, yarimo‘tkazgichlar va mikroelektronika, biotexnologiya va farmatsevtika, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlashda hamkorlik qilish va boshqa yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tildi.

Koreya kompaniyalari misni qayta ishlash, elektrotexnika uskunalarini ishlab chiqarish, avtomobil va elektromobil sanoati uchun butlovchi qismlarni mahalliylashtirish, robototexnika va avtomatlashtirish, biotexnologiya va farmatsevtika, gidroenergetika, energiyani saqlash tizimlari, energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda transport va shahar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga taklif etildi.

Sanoat-texnologik hamkorlikni yanada chuqurlashtirishning amaliy mexanizmi sifatida O‘zbekiston — Koreya sanoat-texnologik alyansini tuzish taklifi ilgari surildi.

Prezidentimiz mamlakatimizda koreys biznesining faoliyati uchun kelgusida yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda amaliy ko‘mak ko‘rsatishga tayyor ekanini bildirdi.

O‘zbekiston — Koreya biznes forumi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Bosh vaziri Xan Son Suk ishtirokida salmoqli investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy bitimlar to‘plami imzolandi.

Mazkur forum doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Koreya Respublikasining yetakchi kompaniya va moliya institutlari bilan qo‘shma loyihalarni ishga tushirish va qurilishini boshlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Jumladan, Toshkent shahrida Kimyo texnologiyalari markazi faoliyat boshladi, Jizzax viloyatida “Kia Sonet Prime” avtomobili va avtomobil kuzovi panellari, Farg‘ona viloyatida elektrotexnika mahsulotlari, Namangan viloyatida polimer buyumlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, paytaxtimizda Milliy onkologiya markazi, tibbiyot oliy ta’lim muassasasi, robotlar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar qurilishi boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida “Lotte Group” raisi Shin Don Binni qabul qildi.

O‘zbekiston yetakchisi kompaniya Koreyaning mamlakatimizdagi eng yirik investorlaridan biri ekanini, ko‘p yillardan buyon samarali hamkorlik olib borilayotganini ta’kidladi. Ustyurt gaz-kimyo majmuasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani alohida qayd etildi.

Davomi 2-betda

46-BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASI QATNASHCHILARIGA

Hurmatli Olimpiada ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Dunyo shaxmat sportining yorqin namoyandalari bo‘lgan siz, azizlarni qadimiy va mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida ilk bor o‘tkazilayotgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasining ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Yer yuzidagi 200 dan ziyod mamlakatdan tashrif buyurgan taniqli grossmeysterlar, murabbiylar va shaxmat ixlosmandlari ishtirok etayotgan ushbu nufuzli sport anjumani uch ming yildan ortiq tarix va madaniyat namunalarini o‘zida mujassam etib kelayotgan ko‘hna Sharq durdonasi — azim Samarqand shahrida o‘tkazilayotgani bayram shukuhini yanada oshirmoqda. Va o‘ylaymanki, sizlar ham buni sezib, his qilib turibsiz.

Bugun bamisoli dunyo shaxmat sporti poytaxtiga aylangan bu ulug‘ shaharga, jonajon O‘zbekistonimizga xush kelibsiz!

Qadrli do‘stlar!

Eng qadimiy intellektual sport o‘yinlaridan biri bo‘lgan shaxmat bizning mamlakatimizda ham o‘zining shonli o‘tmishi, maktab va an’analariga ega.

Ayniqsa, mana shu Samarqand shahrini o‘zi asos solgan buyuk davlatning poytaxti va Ikkinchi Renessans markazlaridan biriga aylantirgan Sohibqiron Amir Temur nafaqat strategik fikrlaydigan yengilmas sarkarda, balki mohir shaxmat ustasi ham edi.

Buyuk alloma bobolarimiz — Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va badiiy asarlarida shaxmatning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni alohida ta’kidlangan.

Biz ana shunday tarixiy an’analarga sodiq qolgan holda, Yangi O‘zbekistonda boshqa sport turlari qatori shaxmatni ham “ommaviylikdan — professionallikka” tamoyili asosida eng quyi bo‘g‘in — mahalladan tortib, ta’lim muassasalarigacha rivojlantirishga ahamiyat bermoqdamiz. Yurtimizda bu borada ham yangi avlod iqtidor egalarini tarbiyalashga qaratilgan yaxlit tizim shakllanmoqda.

Bugungi kunda shaxmat bilan ommaviy shug‘ullanuvchilar 2 million nafardan, reytingga ega bo‘lgan professional shaxmatchilarimiz soni esa 6 ming nafardan ziyodni tashkil etmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, mamlakatimizda xalqaro grossmeyster unvoniga ega bo‘lgan 32 nafar shaxmatchimiz borligini faxr bilan qayd etamiz.

E’tiborli jihati shundaki, 5 nafar yetakchi shaxmatchimiz jahon reytingidagi “eng kuchli yuztalik”dan mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

O‘zbekiston erkaklar jamoasi FIDE reytingida 204 ta davlat orasida 8-o‘ringa, ayollar jamoasi esa 20-o‘ringa ko‘tarilgani ham diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz terma jamoasining 2022-yilda 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi bo‘lgani, 2024-yilgi Olimpiadada sovrindorlar safidan joy olgani, iste’dodli grossmeysterlarimiz nufuzli musobaqalarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotgani, hech shubhasiz, milliy shaxmat sportimiz tarixida yangi sahifalar ochmoqda.

Ayniqsa, navqiron grossmeysterimiz Javohir Sindorovning jahon chempionligi uchun da’vogarlar turnirida g‘olib bo‘lib, jahon kubogini qo‘lga kiritgani, Nodirbek Abdusattorovning blis bo‘yicha jahon chempionatida kumush medalga sazovor bo‘lgani, yosh shaxmatchilarimiz xalqaro chempionatlarda yuksak o‘rinlarni egallayotgani bizga cheksiz g‘urur bag‘ishlaydi.

Muhtaram mehmonlar!

O‘zbekistonga 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga mezbonlik qilish huquqi berilganini biz xalqaro sport hamjamiyatining yurtimizga bo‘lgan yuksak ishonchi sifatida qabul qilamiz.

Samarqand olimpiadasi qizg‘in bellashuvlar, yuksak sport madaniyati, halollik va o‘zaro hurmat ruhida o‘tadi va dunyoga yangi chempionlar va yorqin iste’dodlarni taqdim etadi deb ishonaman.

Ayni vaqtda bu yerda 3-parashaxmat olimpiadasi va 97-FIDE kongressini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha ham barcha sharoitlar yaratildi.

Bu boradagi katta tashkiliy va amaliy ko‘magi, yaqin hamkorligi uchun Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) rahbariyati va jamoasiga, shuningdek, barcha hamkor tashkilotlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, mazkur yirik sport anjumanlari dunyo xalqlari o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular O‘zbekistonda shaxmatni yanada ommalashtirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish va mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qadrli do‘stlar!

Bunday yirik musobaqalar bizning xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta bayram, ulkan mahorat maktabiga aylanishi, mamlakatimizning do‘stlik va hamkorlik diyori sifatidagi xalqaro obro‘-e’tiborini yanada oshirishiga aminman.

Bugungi olimpiada dunyo yoshlariga muhim bir haqiqatni namoyon etmoqda: insoniyatning umumiy kelajagi kuch emas — aql va bilim, adovat emas — do‘stlik va hamjihatlik, befarqlik emas — ezgu maqsadlar yo‘lidagi qat’iyat asosida bunyod etiladi.

Sport qanday buyuk kuch, qanday yuksak namuna ekanini bugungi tantanali marosimda ishtirok etayotgan siz, hurmatli sportchilar, faxriylar, ustoz va murabbiylar yaxshi bilasiz.

Ana shunday g‘oyat mas’uliyatli va sharafli ishda faol ishtirok etib kelayotgan siz, azizlarga mustahkam sog‘liq, barcha jamoalarga yutuq va omadlar, kongress ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Barchangizga zafar yor bo‘lsin, O‘zbekistonga xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YURTNING KUCHI BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR

O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIY FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASINING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH UMUMMILLIY HARAKATIDA FAOL ISHTIROK ETISHLARI UCHUN YURTDOSHLARIMIZGA MUROJAATI

Hurmatli yurtdoshlar!

Jannatmonand yurtimiz — O‘zbekistonning bugungi va kelgusidagi taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi islohotlar zamirida, eng avvalo, inson qadru qimmatini yuksaltirish, har bir vatandoshimizning baxtli-saodatli, farovon va mazmunli yashashiga erishishdek ezgu g‘oya mujassam.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezident bo‘lib saylangan ilk kunlardanoq xalqimizning erkin, farovon, baxtli-saodatli yashashi uchun zarur sharoit hamda imkoniyatlarni yaratishni o‘z oldiga oliy maqsad qilib qo‘ydi.

Jonajon Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida O‘zbekistonimiz tarixida mutlaqo yangi, xalqchil islohotlar hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda barchamiz ularning natijasini o‘z hayotimiz, farzandlarimizning orzu-niyatlari ro‘yobida ko‘rib turibmiz.

Yaqin-yaqingacha O‘zbekistonda aholining kambag‘allik darajasi haqida deyarli gapirilmasdi. Yillar davomida aholi o‘rtasida kambag‘allik tufayli yuzaga kelgan muammolarga ko‘z yumib kelindi. 2020-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakat aholisining kambag‘al qatlami mavjudligini, bu borada juda muhim islohotlar amalga oshirilishi zarurligini kun tartibiga olib chiqdi. Davlatimiz rahbarining ushbu masalaga jiddiy, shaffof munosabat bildirib, uni asosiy kun tartibiga olib chiqishining o‘zida katta bir ma’naviy jasoratni ko‘rib turibmiz.

Davomi 2-betda

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Hyundai Rotem” poyezdlari Toshkent — Xiva yo‘nalishida qatnay boshladi va yo‘l vaqtini ikki barobar qisqartirdi. Kompaniya tomonidan qo‘shimcha poyezdlarni yetkazib berish masalalari muhokama qilindi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 16-sentabr, 191-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON – KOREYA: HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH VA YANGI QO‘SHMA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN KENG IMKONIYATLAR OCHILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda Koreyaning ilg‘or texnologiyalari asosida developerlik loyihalarini amalga oshirish masalalari hamda mis folgasi ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Prezidentimiz kompaniyaning mamlakatimizdagi turizm markazlarini boshqarish va mehmonxona biznesida xizmatlar sifatini oshirish borasidagi rejalarini qo‘llab-quvvatladi.

Yakunda ikki tomonlama loyihalarni amalga oshirish jarayonini monitoring qilib borish maqsadida ishchi guruh tuzish yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Koreya Eksport-import banki raisi Xvan Ki Yon bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuvda Koreya Geologiya va mineral resurslar instituti (KIGAM) prezidenti Kvon I Gyun va Koreya Nodir metallar instituti (KIRAM) direktori o‘rinbosari Bum Sun Kim ham ishtirok etdi.

Sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, muhim materiallar, ta’lim va transport sohalarida bank va uning jamg‘armalari bilan ko‘p yillar samarali hamkorlik qilinayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari hamkorlik bo‘yicha 8 milliard dollarlik yangi dastur imzolanishini qo‘llab-quvvatladi. Shuningdek, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlarni yetkazib berish, Biomarkaz tashkil etish, muhim minerallarni qayta ishlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni jadallashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Orolbo‘yi hududida Xotin-qizlar tadbirkorligi markazini ochish hamda Toshkent — Samarqand yo‘nalishida yangi temir yo‘l qurilishi loyihasiga Koreyaning moliya institutlari va kompaniyalarini jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tomonlar strategik muhim minerallar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha qo‘shma jamg‘arma ishga tushirilganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Yarimo‘tkazgichlar va yangi materiallarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish markazini tashkil etish masalasini o‘rganish taklif etildi.

Ushbu loyihalarda Koreya Geologiya va mineral resurslar instituti hamda Koreya Nodir metallar institutining faol ishtirokini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Seul shahriga tashrif doirasida “Hyundai Motor Group” strategiya bo‘yicha prezidenti Kim Son, “Kia Motors” katta vitse-prezidenti Cho San Un va “Hyundai Rotem” direktorlar kengashi raisi Li Yon Be bilan ham uchrashuv o‘tkazdi.

Kompaniyalar guruhining O‘zbekistonda avtomobil va transport sohalarini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi yuqori baholandi. Jizzaxda tashkil etilgan avtomobil klasterida ishlab chiqarishni kengaytirish va avtomobil butlovchi qismlarini mahalliylashtirish darajasini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

“Kia” avtomobillarini ishlab chiqarishning to‘liq zanjiri yo‘lga qo‘yilayotgani va eksport hajmi ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yangi rusumdagi avtomobillar ishlab chiqarishni boshlash va presslash sexini ishga tushirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, elektr va gibrid avtomobillar yig‘ishni yo‘lga qo‘yish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Hyundai Rotem” poyezdlari Toshkent — Xiva yo‘nalishida qatnay boshladi va yo‘l vaqtini ikki barobar qisqartirdi. Kompaniya tomonidan qo‘shimcha poyezdlarni yetkazib berish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimizda “Hyundai Rotem” servis markazini tashkil etish, butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda elektr dvigatellari uchun magnitlar ishlab chiqarish masalasini o‘rganish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Seul shahriga tashrifi doirasida “Shinhan Financial Group” kompaniyasi raisi Chjin Ok Donni qabul qildi.

Uchrashuvda moliyaviy hamkorlikni kengaytirish hamda infratuzilmani takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energetika va sanoat sohalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston tijorat banklariga kredit liniyalarini ajratish to‘g‘risida kelishuv imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Mamlakatimizda “Shinhan Bank”ning shu’ba bankini tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Yangi moliyalashtirish instrumentlari va “yashil” kreditlarni jalb etish hamda raqamli banking, kichik va o‘rta biznes uchun maxsus yechimlarni rivojlantirishdan manfaatdorlik bildirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida “KIND” korporatsiyasi bosh ijrochi direktori Kim Bok Xvan bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqotda mamlakatimiz transport va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Tomonlar qo‘shma investitsiya platformasi tashkil etilganini olqishladilar.

Yangi ilmiy-sanoat bioklasterini tashkil etish loyihasi doirasida ilm-fan, sanoat va zamonaviy texnologiyalarni birlashtiruvchi yaxlit ekotizimni shakllantirish muhimligi ta’kidlandi.

Tomonlar Toshkentning yangi xalqaro aeroporti atrofidagi hududni rivojlantirish bo‘yicha master-reja ishlab chiqib, unda aeroport, ilg‘or logistika xablari va turar joy infratuzilmasini yagona tizimga birlashtirish zarurligini qayd etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga tashrif doirasida “Incheon International Airport Corporation” prezidenti vazifasini bajaruvchi Kim Bom Xo bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Urganch xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish va Toshkentning yangi xalqaro aeroportini qurish loyihalarini amalga oshirish jarayoni muhokama qilindi.

“Incheon International Airport Corporation” kompaniyasining Toshkent shahrida o‘z vakolatxonasini ochish rejalari qo‘llab-quvvatlandi. Uning negizida aeroportlarni boshqarish, raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash bo‘yicha kompetensiyalar markazini tashkil etish taklifi bildirildi.

Koreya tomoni qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishni davom ettirish, aeroportlarni boshqarish sohasida ilg‘or tajriba va texnologiyalarni joriy etish hamda O‘zbekiston bilan uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishga tayyorligini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga davlat tashrifi chog‘ida ushbu mamlakatda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashdi.

Norasmiy muhitda o‘tgan samimiy suhbat davomida Yangi O‘zbekistondagi islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar va ularni hayotga faol tatbiq etishga vatandoshlarimizning qo‘shayotgan hissasi muhokama qilindi.

Uchrashuv ishtirokchilari O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasida iqtisodiyot, ilm-fan va ta’lim sohalaridagi aloqalarni kengaytirishga qaratilgan bir qator ilg‘or takliflarni ilgari surdilar.

Milliy iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlari va davlat boshqaruviga sun’iy intellekt hamda Koreyaning raqamli texnologiyalarini integratsiya qilish, tibbiyot, transport, bojxona va turizm sohalarida innovatsion yechimlarni ilgari surish, milliy to‘lov tizimlari va pul o‘tkazmalari platformalarini jadal rivojlantirish hamda axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalarni chuqurlashtirish bo‘yicha aniq takliflar bildirildi. Xususan, Koreya Respublikasida O‘zbekiston madaniy markazlari tarmog‘ini kengaytirish, o‘zbek tilini o‘rganish dasturlarini rivojlantirish, ikki mamlakat hududida turli madaniy tadbirlarni o‘tkazish hamda o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini koreys tiliga tarjima qilish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga qo‘shayotgan salmoqli hissasi uchun vatandoshlarimizga minnatdorlik bildirib, ularning har bir tashabbusi batafsil o‘rganilishini, eng muhim loyihalar har tomonlama amaliy qo‘llab-quvvatlanishini ta’kidladi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuvda qatnashgan professorlar, tadbirkorlar, faollar va talabalarga o‘qishda va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatlar tilab, davlatimiz ular bilan muloqotga doimo ochiqligi, vatandoshlarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga tayyorligini alohida qayd etdi.

O‘z navbatida, uchrashuv ishtirokchilari Prezidentimizga yoshlarga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va orzu-niyatlarni ro‘yobga chiqarishda yaratilayotgan yangi imkoniyatlar uchun samimiy minnatdorlik bildirib, o‘z bilim va g‘ayratini Vatanimiz farovonligi va ravnaqi yo‘lida safarbar etishga hamisha tayyor ekanligini aytdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga tashrifi davom etmoqda.

O‘zA

YURTNING KUCHI BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR

O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIY FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASINING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH UMUMMILLIY HARAKATIDA FAOL ISHTIROK ETISHLARI UCHUN YURTDOSHLARIMIZGA MUROJAATI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash, xalqimiz turmushini yaxshilash yo‘lida qilingan tizimli ishlar va islohotlar natijasida joriy yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib, 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2,2 milliondan 1,5 millionga kamaydi.

Bugunga kelib Prezidentimiz tashabbusi bilan kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanmoqda. Bu oddiy harakat emas! Bu mamlakatimizning yangi taraqqiyoti sari qo‘yilayotgan ulkan qadamdir! Bu xalqimiz farovonligi yo‘lida bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilishimizga undovchi chorlovdir!

Aziz yurtdoshlar, pir-u badavlat nuroniylar, hoji ota, hoji onalar, “mahalla yettiligi”, “buvijonlar maktabi” faollari, ota-onalar, yoshlar, barcha-barchamiz ana shu umummilliy harakatda faol ishtirok etaylik!

Muhtaram nuroniylar! Sizlar yurtimizning, mahallalarning ma’naviy ustunlarisiz! Ikkinchi jahon urushi yillaridagi mashaqqatli hayot, urushdan keyingi yillardagi ocharchilik, qimmatchilik davrlarini ko‘rgansiz! Eng og‘ir davrlarda ham xalqimiz bir tanu bir jon bo‘lib, ahillik, hamjihatlikda, bir-biriga mehr-oqibat ko‘rsatib, sinovlardan o‘tgan kunlarni yaxshi eslaysiz!

Vaholanki, o‘sha davrlarda xalqimiz kambag‘allikning eng og‘ir davrini boshidan kechirgan edi. Oyoqqa turish, farzandlarni baxtli-saodatli ko‘rish uchun ota-onalar, bobo-buvilar qanchalik mashaqqatli mehnat qilganiga guvoh bo‘lgansiz!

Bugungi saodatli kunlarimizda yoshlarga, eng avvalo, tinchlik-osoyishtalik va to‘kin-sochinlik qadrini tushuntiraylik! Kambag‘allik ayb emas, kambag‘allikdan chiqishga urinmaslik, mehnat qilmaslik ayb ekanini qo‘ni-qo‘shnilarimiz, mahalla-ko‘ydagi yaqinlarimizga uqtiraylik.

Shukrlar bo‘lsinki, mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Yangilangan Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb e’lon qilindi. Davlatimiz qiynalib yashayotgan, turmush sharoiti og‘ir keksalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar va ularning farzandlari turmush sharoitlarini yaxshilash uchun barcha imkoniyatlarni yaratmoqda. Afsuski, to‘rt muchasi sog‘lom bo‘la turib, arzimagan dardini ro‘kach qilib, ishlamay, atrofdagilardan yordam kutib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolayotgan hamyurtlarimiz ham oramizda bor ekani achinarli holdir!

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bor. Afsuski, boqimandalik kayfiyatiga tushgan xonadonlar farzandlari ham shu illatga o‘rganib qolmoqda! Ularga farzandlari baxtu saodati uchun harakat qilishlari kerakligini biz Ikkinchi jahon urushining eng og‘ir yillarida ham juda katta mehnat evaziga janggohlardagi millionlab askarlarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlagan xalqning farzandlari ekanimizni tushuntiraylik!

Ushbu amaliy sa’y-harakatlar jarayonida boqimandalikni “kasb” qilib olgan xonadon egalari bilan bevosita ishlab, ularning dun-yoqarashini tamomila o‘zgartirish, ongi va qalbida mehnatga, ishlashga ishtiyoqni oshirish, aniq bir ezgu maqsad yo‘lida harakatga keltirish, ta’bir joiz bo‘lsa, “uyg‘otish” zarur. Buning uchun siz o‘zingizdagi bor bilim-malaka va tajribadan shu qadar ustalik bilan foydalanishingiz lozimki, ular “davlat va hukumat menga nima berdi?” deb emas, balki “Men o‘z kuchim, bilim, iqtidorim va mehnatim bilan avvalo oilamga, undan keyin mahallamga, Vatanimga nima bera olishim mumkin?!” degan savolni ko‘ndalang qo‘yishi kerak. Ishonch bilan aytish mumkinki, bugun o‘ziga shunday savol bergan kishi aslo boqimandalikka berilmaydi, aksincha, bunyodkorlik, yangilash va yaratish yo‘lidan boradi. Shu yo‘lda izlanadi va natijalar qayd etadi.

Shunday ekan, boqimandalik ularning farzandlariga meros bo‘lib o‘tmasligi uchun targ‘ibot ishlarimizni kuchaytiraylik! Targ‘ibotni vazifa emas, balki mashg‘ulot deb bilishimiz lozim. Zero, doimiy odatga, mashg‘ulotga aylangan har bir ezgu ish o‘z samarasini bermay qolmaydi.

Hurmatli imom-xatiblar, otinoyilar!

Sizlar hamisha xalqimizning issiq-sovuq ma’rakalarida, quvonchli va qayg‘uli kunlarida odamlar orasida bo‘lasiz. Ilm-u ma’rifatingiz bilan minglab yurtdoshlarimizni to‘g‘ri yo‘lga boshlaysiz! Bugungi kunda mahallalarda ayrim toifa odamlar orasida paydo bo‘layotgan dangasalik, boqimandalik kayfiyati jamiyatimiz uchun og‘riqli muammo ekanini yaxshi bilasiz!

Muqaddas hadislardagi “Bergan qo‘l olgan qo‘ldan xayrliroqdir” degan purhikmat so‘zlarni bugun atrofimizda yashayotgan, o‘z muammolarini hal etishni boshqalar zimmasiga yuklab, boqimandalik kayfiyatiga berilayotgan ayrim hamyurtlarimizga tushuntiraylik! Zero, ona xalqimiz “Mehnat bilan topilgan non eng totli ne’matdir” degan naqlni bejiz aytmagan. Har bir insonni halol mehnati, izlanishi, salohiyatini yuzaga chiqarishi evaziga topadigan daromadi va shu orqali odamlarga manfaatli bo‘lishi o‘zgacha zavqlantiradi. Bu hayot zavqini his etish ham saodatga yetaklovchi omil ekanini juma ma’ruzalari va ma’rifiy yig‘inlarda odamlarga hayotiy hikmatlar bilan tushuntiraylik! Baraka omillari, kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi zararli odatlar va illatlar haqida yurtdoshlarimizga keng tushuncha beraylik!

Oramizda ehsonini oshkor etmaydigan badavlat, tadbirkor, barakali insonlar bor. Ularga ham ishlashga sharoiti bo‘la turib, ehson kutib yashayotgan oilaga kundalik taomini berishdan ko‘ra, shu oila a’zolarini ishga yo‘naltirish, kasb-hunar o‘rgatib, ish bilan ta’minlashning savobi ulkanroq ekanini uqtiraylik! Muqaddas dinimizda sadaqai joriya orqali odamlar aynan mana shunday xayrli ishlarga targ‘ib etilganini yaxshi bilamiz!

Shu bilan birga, peshona teri evaziga topgan mablag‘larini orzu-havas yo‘lida havoga sovurayotgan hamyurtlarimiz ham yo‘q emas. To‘y va boshqa oilaviy marosimlarini dabdabali o‘tkazish uchun, mashinasiga boshqalarnikiga o‘xshamaydigan raqam olish, hatto chaqalog‘ini tug‘uruqxonadan olib chiqish uchun juda katta miqdordagi pullarini sarflab yuborayotgan, keyin esa qarzga botib qolayotganlar atrofimizda yashamoqda. Tejamkorlik barakaning kaliti ekanini ularga tushuntiraylik! Ixcham va chiroyli to‘ylar, oilaviy tadbirlarni tashkil etishda o‘zimiz boshqalarga ibrat bo‘laylik!

Hurmatli vazirlik va idoralar, hokimliklar mutasaddilari!

Kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatini amalga oshirishda, xalqimiz hayotiga bugungi islohotlarni olib kirishda, ayniqsa, sizlarning ishtirokingiz juda muhim!

Prezidentimiz raisligida 11-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi



sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu borada sizlarga yangi vazifalar belgilab berildi. Prezidentimiz bundan buyon hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag‘allik sharoitidan olib chiqish bo‘lishi kerakligini ta’kidladi.

Bu yil har bir mahalla to‘liq xatlovdan o‘tkazilishi, “kambag‘al oilalar portreti” ishlab chiqilishi, oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bilan shug‘ullanishda har bir mutasaddi tashkilot vakillari vijdonan ishlaylik!

Mahallalardagi sharoitlarni yaxshilash, kelasi yili mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, sharoiti eng og‘ir 300 ta mahallada suv nasoslari va quyosh panellari o‘rnatish, 500 ta mahallada elektr, yo‘l, internet va boshqa infratuzilma masalalari hal etilishi ham kambag‘allikni qisqartirish yo‘lidagi salmoqli qadamlar bo‘ladi.

Birgina Qo‘shrabot tumanida aholining 1,5 mingi tomorqada band bo‘lgani bilan suv muammoligi uchun kam hosil olayotgani, 610 nafari tadbirkor bo‘lgani bilan faoliyatini kengaytirishga imkoniyat yo‘qligi bois, daromadi yetarli emasligi, 660 nafari kasbiy ko‘nikmasi yo‘qligi sababli ishsiz ekanini Prezidentimiz alohida ta’kidladi.

Bunday muammolar yurtimizning barcha hududlarida mavjud. Ularga yechim topish, aholi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirishda mas’uliyatni his etib Prezidentimizga kamarbasta bo‘laylik, sergaklik va g‘ayrat-shijoat namunasini ko‘rsataylik!

Nuridiydalarimiz bo‘lgan qadrli yoshlar!

Sizlar — yurtimiz kelajagining egalarisiz!

Mamlakatimizda sizlarning ilm olishingiz, salohiyatingizni yuzaga chiqarishingiz, baxtli-saodatli yashashingiz uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalaning! Dunyoda bu sharoit va imkoniyatlarni orzu qilib yashayotgan qanchadan qancha imkonsiz yoshlar borligini unutmang!

Qancha ko‘p o‘qib-o‘rgansangiz, jamiyatga aralashib, el-yurtga manfaatli bo‘lishga urinsangiz, shaxs sifatida takomillashib boraverasiz! “Parij — 2024” Olimpiadasi g‘oliblari, ayniqsa, “Parij — 2024” Paralimpiya o‘yinlari ishtirokchilari va g‘oliblari ham sizlarning tengdoshlaringiz! Ularning Olimpiada o‘yinlari, Paralimpiya bahslariga yetib borishining o‘zi katta g‘alaba! Bu yo‘lda qilingan mehnatlar oson bo‘lmagan! El-yurtning suyumli o‘g‘il-qizi bo‘lish yo‘lida ulardan ibrat oling! Ona Vatan shonu sharafini qalbiga jo etib intilganlar hamisha el-yurtning ardog‘iga va baxtli hayotga erishishini unutmang!

Siz ham imkoniyat va salohiyatingizni yuzaga chiqarish yo‘lida harakat qiling! Sport, san’at, madaniyat, ilmu ma’rifat yo‘lida intiling! Ota-bobolaringiz asrab-avaylab kelayotgan kasb-hunarlarni puxta egallang! Xalqimizda “Ota kasbida baraka bor” degan gap bejiz aytilmagan! Eng avvalo, oilangizga kelayotgan baraka yo‘llarini o‘rganing. Tengdoshlaringizni ham g‘ayratli, shijoatli bo‘lishga chaqiring! Afsuski, bugun orangizda o‘z orzu-maqsadlarini aniq belgilay olmagan yoshlar talaygina. To‘rt muchasi sog‘ bo‘la turib, ishlamayotgan, biror kasb-hunarning boshini tutmaganlar bor. Barakaning kaliti mehnatda ekanini ularga tushuntiring! Sizlarning bugungi sa’y-harakatlaringiz, orzu-intilishlaringiz bevosita ona Vatanimiz kelajagini belgilab berishini unutmang!

Hurmatli usta bog‘bonlar, bobo dehqonlar!

O‘zbekistonimizning har bir qarich yeri oltinga tengdir. Siz yer bilan tillashish san’atini puxta egallagan hayot akademiklarisiz!

Har bir oilaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ayniqsa, tomorqachilikni rivojlantirish, turli kasb-hunarlar orqali aholimizning daromad topishiga ko‘maklashish ham dolzarb vazifamiz.

Tomorqa beqiyos xazina ekanini yosh oilalar hayotiga singdirish uchun bu borada “ustoz-shogird” an’analarini hayotga keng tatbiq etaylik! Har bir xonadonda kattami-kichikmi issiqxonalar qurib, pomidor, bodring, ko‘kat va limon parvarishlashni yoshlarga o‘rgataylik! Mehnat ortidan keladigan qut-baraka, baxtli va fayzli hayot qadrini joylarda turli yig‘in va ma’rakalarda, ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etaylik!

Mamlakatimiz aholisida yarim million gektarga yaqin tomorqa mavjud. Afsuski, undan haliyam to‘la foydalanishni bilmaydigan oilalar bor. Sayxunobod tajribasi, Uychi tajribasi asosida tomorqadan qanday foydalanishni qo‘shnilarimizga, tanish-bilishlarimizga o‘rgataylik! Tomorqa bizga Allohning buyuk ne’mati ekanini, undan samarali foydalanishimiz zarurligini uqtiraylik!

Prezidentimiz tashabbusi bilan lalmi, bo‘z, yaylov va yangi o‘zlashtirilgan yer maydonlaridan 60 ming gektar yer yoshlarga berildi. Ayni paytda davlatimiz rahbari yana 50 ming gektar yer 100 mingta kambag‘al oilaga bo‘lib berilishini ta’kidladi.

Yoshlar va yosh oilalarga yer bilan tillashishni, qayerga qanday ekin ekishni, ekinlarni qanday parvarishlashni o‘zimiz o‘rgatmasak, ularning mehnati va harakati besamar ketaveradi. Yer bilan tillashishni bilmasa, kambag‘al qanday boy bo‘lsin!

Atrofingizdagi qiynalib yashayotgan, o‘ziga munosib ish topa olmayotgan mahalladoshingizni yoningizga oling! Prezidentimiz tashabbusi bilan kambag‘allarga ajratiladigan yerlardan qanday foydalanishni ularga o‘rgating!

Aziz hunarmandlar, yurtimiz iqtisodiyoti tayanchi bo‘lgan tadbirkorlar!

Sizlar hunarni asrash, uni keyingi avlodlarga yetkazish bo‘yicha xalqimizning azaliy qadriyatlarini ulug‘lab kelmoqdasiz. Biznes yuritishning, tadbirkorlikning turli yo‘nalishlarida ish boshqarishning sir-asrorlaridan xabardorsiz!

Prezidentimiz aholini ish bilan ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirishda sizlarga katta ishonch bildirmoqda.

Biz, keksa avlod vakillari yaxshi bilamizki, bugun, ayniqsa, so‘nggi yetti yilda tadbirkorlarga berilgan imkoniyatlar ilgari sira bo‘lmagan. Garchi qonimizda tadbirkorlik bo‘lsa-da, yaqin o‘tmishda, tadbirkorlik va hunarmandlik biznesi bilan shug‘ullangan odamlar qattiq qoralanar edi. Kimdir tadbirkorlik qilsa, “chayqovchi”, “olib-sotar” degan tamg‘a qo‘yilardi. O‘sha davrlarda oramizdan boy chiqmasin deb kurashilar edi. Endilikda esa har bir insonning salohiyatini yuzaga chiqarish, boylarni ko‘paytirish, kambag‘allikni qisqartirish uchun yurtimizda juda katta harakatlar qilinmoqda.

Biroq “Qo‘ldan berganga qush to‘ymas” degan gap bejiz aytilmagan. Kambag‘allikdan qiynalgan oila vakillariga bir martalik yordam bergandan ko‘ra, ularni kasb-hunarli qilib, ish bilan ta’minlash savobliroq amaldir.

El-yurtimiz farovonligi yo‘lida hayotda o‘z yo‘lini topa olmay, qiynalib, kambag‘allikdan aziyat chekib yurgan hamyurtlarimizni yoningizga oling, kasb-hunar o‘rgatib, hayotda o‘z yo‘lini topishiga ko‘maklashing! Odamlarni ish bilan ta’minlashni sharafli yumush deb bilaylik!

Hurmatli “mahalla yettiligi” faollari!

Sizlar mahallaning pastu balandini, oilalarning moddiy imkoniyatlarini hammadan yaxshi bilasiz!

Davlatimiz rahbari mahalla tizimini mustahkamlashga, mahallalarimizni obod qilishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so‘m arzon kredit, 7 trillion so‘m subsidiya berilgan. Mahallalarni obod qilish, bog‘cha, maktab, tibbiyot, yo‘l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so‘m ajratilgan.

O‘tgan oyda yurtimizga Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro konferensiyaga kelgan 60 dan ortiq mamlakat ekspertlari O‘zbekiston qisqa muddatda yaratgan tajribani yuqori baholadi. Ammo respublikamizdagi 15 ta tumanda kambag‘allik 20 foizdan yuqoriligi ko‘rsatilmoqda. Bu tumanlarda kambag‘allikni qisqartirish uchun uch yilda 1,7 trillion so‘m arzon kredit va subsidiya berilgan.

Bu e’tibor zamirida ham inson manfaatlarini himoya qilish, qadr-qimmatini yuksaltirishdek ezgu maqsad borligini mahalla ahliga tushuntiraylik!

Oilalarga kirib, xonadonning ishga yaroqli barcha a’zolarini mehnat qilishga, ishlab oilasini oyoqqa turg‘azishga ruhlantiraylik! Mehnat zavqini odam o‘zida his qilmasa, oila boy bo‘lmasligini tushuntiraylik!

Aslida, hammaning ham farovon hayot kechirgisi keladi! Biroq bunday yashash uchun kimdadir bilim, ko‘nikma va tajriba yetishmaydi. Ana shunday oilalar vakillariga o‘z salohiyatini, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beraylik! Zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rgataylik!

Mehnat qilishga qodir bo‘lmagan, davlatimizning ijtimoiy himoyasiga muhtoj mahalladoshlarimizni ham qo‘llab-quvvatlaylik!

Idoralar, vazirliklar va hokimliklar bilan hamkorlikda “mahalla yettiligi” aholini daromadli ishlarga joylashtirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi. Bundan unumli foydalanaylik! Kambag‘al oila a’zolari bilan dildan gaplashib, kim nimaga qiziqishi va qanday yumushga ko‘nikmasi borligini aniqlaylik!

O‘ziga ishonchi yo‘qolgan, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan ayrim hamyurtlarimizni sog‘lom hayotga qaytarish “mahalla yettiligi”ning muhim vazifasiga aylansin!

Aziz hamyurtlar!

Shu obod va jannatmonand yurt hammamizniki!

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi bayrami munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida Prezidentimiz: “Bugun shiddatli hayotning o‘zi barchamizni yanada ulkan marralar sari da’vat etmoqda. O‘z kuchimiz va salohiyatimiz bilan barpo etgan mustaqil davlat, erkin va ozod jamiyatni yanada kuchli, yanada go‘zal va obod etish bosh vazifamizga aylanmoqda”, deya alohida ta’kidladi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “yurtning kuchi birlikda, qadri esa tinchlikdadir”.

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz! Yangi O‘zbekistonimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” umummilliy harakatida faol ishtirok etib, Prezidentimizga kamarbasta bo‘laylik!

Mahallalarimizda kambag‘allik darajasidagi oilalar qolmasligiga erishaylik! Yangi O‘zbekistonimizning barqaror rivojlanishi va taraqqiyotini ta’minlashga har birimiz munosib hissa qo‘shaylik!







HUDUDLARDAGI KATTA ORZULAR RO‘YOBI

“YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVLARI INSONLAR TURMUSH TARZI VA KELAJAK HAQIDAGI TASAVVURLARNI QANDAY O‘ZGARTIRMOQDA?

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida “Yangilanishlar xaritasi” loyihasini boshlagan edik. Unda mamlakatimizdagi islohotlarning hududlarda qay yo‘sin amalga oshayotgani, oddiy odamlar hayotidagi yangilanishlar, olis qishloq va ovullarda yashaydigan yurtdoshlarimiz o‘y-fikrlari, orzulari kabi masalalarga javob topish uchun gazetamizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi muxbirlari bilan onlayn gurung tashkil etib borishni maqsad qilganmiz.

Bu safargi suhbatimiz “Yangi O‘zbekiston” massivlari haqida bo‘ldi. Unda yangi massivlar oddiy insonlar turmush tarzida qanday o‘zgarish yasaganini ochib berishga urindik. Suhbat chog‘ida mavzuning ko‘lami kengligi, bu borada aytiladigan fikrlar ko‘pligini sezdik. Shu bois, eng muhim deb hisoblangan faktlar asosidagi fikrlarga ko‘proq e’tibor berdik. Umid qilamizki, poytaxtdan olisda, oddiy odamlar orasida yurgan jurnalistlar nigohi ila mamlakat bo‘ylab quloch yozgan yangilanishlar xaritasini ko‘rish, tasavvur etish yo‘lidagi navbatdagi suhbatimiz siz, aziz o‘quvchilarga manzur bo‘ladi.

Tahririyat



Yangilanishlar xaritasi

G‘olib ABDUSALOMOV:

— Mamlakatimiz hayotida so‘nggi 10 yil ulkan bunyodkorlik davri sifatida tarixga muhrlanyapti. Ushbu yangilanishlar shiddati olisu yaqin manzillarda birdek ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, Navoiy viloyatida ham o‘tgan qisqa davrda shaharu qishloqlar, chekka ovul va qo‘rg‘onlarda katta hajmdagi qurilish, bunyodkorlik ishlari bajarildi. Mahallalar obod bo‘ldi.

“Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish dasturi ana shu bunyodkorlik ishlariga yangicha ruh berdi. Shunchaki ruh berdi deyish kamlik qiladi. Dastur xalqimizning uy-joyga ehtiyoji qatori yana bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim bo‘ldi. Taraqqiyot shiddatini o‘zida jamlagan yirik loyiha sifatida hayotimizga kirib keldi.

Shu o‘rinda bir jihatni esga olsak. Dastlab qishloq joylarda, ochiq dalalarda ko‘p qavatli uylar qurila boshlaganida ayrim yurtdoshlarimiz bunga bir oz ajablanish bilan qaragan edi. Shuncha keng joyda ko‘p qavatli uylar qurish nimaga kerak degan savollar quloqqa chalingani bor gap. Negaki ko‘p qavatli uyni qishda isitish, yozda salqin saqlash bilan bog‘liq masalalar ko‘pchilikni o‘ylantirardi. Shu paytgacha ayrim shaharchalarda ham oqova suv tizimi yo‘qligi bunga sabab edi.

“Yangi O‘zbekiston” massivlari qarashlarimizni butkul o‘zgartirdi. Chekka, qarovsiz yotgan yerlardan ham oqilona foydalanish, zamonaviy shahar bunyod etish mumkinligini isbotladi. Xususan, Navoiy viloyati markazidan qariyb 200 kilometr uzoqdagi Zarafshon shahrida katta bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Yo‘llar ravon bo‘lib, chiroqlar o‘rnatildi. Yo‘l chetlariga manzarali gul va daraxt ko‘chatlari ekildi. Zarafshon shahri tashkil etilganida 50 ming aholi yashashi mo‘ljallangan. So‘nggi 20 yilda shaharda aholi soni qariyb 2 baravar ko‘paydi. O‘z-o‘zidan uylar va infratuzilma obyektlari quvvati oshishi talabga aylandi. Sodda aytganda, bitta xonadonda bir necha oila tiqilib yashardi. Poliklinikaga borgan kishi uzoq navbatda turishga, qoniqarli bo‘lmagan sharoitda davolanishga majbur edi. Negaki talab oshgani sari moddiy-texnik baza sabab xizmat sifatiga ta’sir qiladigan omillar ko‘payib borayotgandi.

Mamlakatimiz yetakchisining Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida hudud faollarining Zarafshon shahrini kengaytirish va shahar markaziy poliklinikasi uchun yangi bino qurish taklifi ma’qullandi. O‘tgan qisqa muddat ichida shaharda 7-12 qavatli turar joy binolari qad rostladi. Hozir sanoatchilar shahri kun sayin kengayib bormoqda. Shahardagi “Yangi O‘zbekiston” massivida 2024-yilda 100 ga yaqin ko‘p qavatli turar joy qurilgan edi. Ular 2025-yilda 180 taga yetkazildi. Joriy yilda ham qurilish davom etyapti.

Yana bir misol. Karmana tumanining Do‘stlik mahallasida 21 gektarda “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etildi. Uning birinchi bosqichi — 2022-2024-yillarda 420 xonadonli 18 ta ko‘p qavatli uy qad rostladi. O‘tgan 2025-yilda 40 xonadonli yana 2 ta uy foydalanishga topshirildi. Yurtdoshlarimizda ushbu massivlardan xonadon sotib olishga ishtiyoq baland. Negaki ular boshqa uylardan tubdan farq qiladi. “Yangi O‘zbekiston” massivlarini shahar ichidagi alohida kichik shaharcha desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Ya’ni aholiga yashashi uchun nima kerak bo‘lsa, qanday xizmatga zarurat bo‘lsa, massivlarning o‘zida yaratilyapti. Bu xususda hamkasblarimiz ham fikrini batafsil aytadi. Demoqchimizki, “Yangi O‘zbekiston” massivi timsolida insonga e’tibor, uni qadrlashning amaliy ifodasini ko‘rish mumkin.

Ushbu massivlarning o‘ziga xosligi loyihada ko‘p qavatli uylar yoniga maktab, bog‘cha, poliklinika, savdo nuqtalari kompleks tartibda qurilganida. Shunga asosan, tumandagi yangi massivda ham maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab va poliklinika qurilib, foydalanishga topshirildi.

— Bosh rejaga ko‘ra, tumanimizdagi “Yangi O‘zbekiston” massivida 1180 xonadonli 56 ta ko‘p qavatli uy qurish reja qilingan, — deydi Karmana tumani hokimi o‘rinbosari Anvar Toshnazarov. — Shuningdek, 1 ta 330 o‘rinli, 1 ta 660 o‘rinli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 180 o‘rinli 2 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, mahalla binosi, madaniyat uyi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi, avtomobillar uchun turargoh, bolalar va sport maydonchalari, istirohat bog‘i, umumiy ovqatlanish hamda boshqa ko‘ngilochar shoxobchalar qurilishi ko‘zda tutilgan. Yangi massivda binolar belgilangan standartlar asosida, shaharsozlik normalariga amal qilingan holda mustahkam va sifatli qilib qurilishi tegishli tashkilotlar nazoratiga olingan. 2022-2025-yillar davomida qurilishi yakunlangan ko‘p qavatli uylar va binolar isitish tizimiga ulangan, gaz, suv, elektr bilan ta’minlangan va yangi xonadonlar aholiga zamonaviy dizaynda, to‘la-to‘kis ta’mirlangan holatda topshirildi.

Qiziltepa tumanining Malikobod mahallasida ham “Yangi O‘zbekiston” massivi bunyod etilyapti. Unda 52 ta ko‘p qavatli uy, maktab, bog‘cha, oilaviy poliklinika, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, istirohat bog‘lari bo‘ladi. Ichimlik suv, elektr, tabiiy gaz, issiqlik va kanalizatsiya tarmoqlari tortilib, ichki yo‘llar ta’mirlanyapti.

Qiziltepa tumani hokimi o‘rinbosari Hasan Aliyevning ma’lum qilishicha, massiv uchun 20,1 gektar yer ajratilgan. Loyihaning 1-bosqichida 200 xonadonli 8 ta 5 qavatli uy qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 180 o‘rinli umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 50 qatnovli tibbiyot muassasasi qurildi. Bu ishlar qisqa vaqt — 2022-2024-yillar davomida bajarildi. Ayni vaqtda 2-bosqich ishlari davom etmoqda. Uning doirasida 252 ta xonadonli 7 ta 9 qavatli uy qad rostlayapti. Bosh rejaga ko‘ra, 1112 xonadonli 50 ta ko‘p qavatli uy, maktablar, mahalla binosi, madaniyat uyi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi, avtoturargoh, bolalar va sport maydonchasi quriladi.

“Yangi O‘zbekiston” massivlari olis hududlarga ilgari shaharlarimizda ham bo‘lmagan zamonaviy hayot tarzini olib kirdi. Shaxsan men shu paytgacha Toshkentda yoki dunyoning boshqa shaharlarida ham barcha imkoniyat, xizmatlar bir joyda jamlangan ixcham, zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan shaharcha bunyod etilganini eshitmaganman. To‘g‘ri, bu borada izlanib muayyan o‘xshashliklarni topdim. Masalan, Singapur kabi rivojlangan davlatlarda shunga yaqin loyihalar bor. Ularda xizmat ko‘rsatish tizimi bir joyda, yopiq bino ichida joylashgan. Massiv ichida ish o‘rinlari yaratilgan binolar esa faqat yotoqxona shaklida qurilgan.

“Yangi O‘zbekiston” massivlari tom ma’nodagi shaharcha. Uning ish o‘rni ham, xizmat ko‘rsatish sohasi ham, madaniy hordiq chiqarishga sayilgoh va choyxonalari ham bor. Xavfsizlik tizimi, aholini qiynaydigan savollarga javob shu mahallaning o‘zida jamlangan.

Akbar RAHMONOV:

— To‘g‘ri aytdingiz, G‘olib aka! Bugun olis hududlar obod maskanga aylanyapti. Uch-to‘rt oy oldin borgan manzilga yana yo‘lingiz tushsa, o‘zgarishlardan hayratlanasiz. Uzoq yillar qarovsiz yotgan joylar qisqa fursatda go‘zal maskan bo‘lib boryapti.

Ushbu yirik loyiha aniq huquqiy asos, iqtisodiy yechimlar bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yil 9-dekabrda davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzolagan edi. Mazkur hujjatga ko‘ra, 2022-yildan manzilli ro‘yxat asosida joylarda “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishi boshlandi.

Qashqadaryoda dastlab Koson va Yakkabog‘ tumanlarida zamonaviy uylar qurilishiga kirishilgan edi. Belgilangan muddatda sifatli, talab darajasida barpo etilgan imoratlar bugun aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Yakkabog‘ tumani hokimligi bergan ma’lumotga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston” massivi uchun ajratilgan 18 gektar yerda jami 1340 xonadonli 54 ta 5 qavatli uy qurilib, foydalanishga topshirilgan. Loyiha doirasida 36 xonadonli 15 ta, 40 xonadonli 1 ta, 20 xonadonli 38 ta uy-joy barpo etilgan. Shuningdek, byudjet mablag‘lari evaziga 15 milliard so‘mga 330 o‘rinli 1 ta yangi maktab hamda 6,5 milliard so‘mga 120 o‘rinli 1 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti va 1,7 milliard so‘mga mahalla binosi qurilgan.

Bu bitta hududdagi zarur inshootlar uchun sarflangan mablag‘. Endi quyidagi faktlarga e’tibor qiling. Ikki yo‘lakli ko‘p qavatli o‘n beshta uyning 1-qavatidan tadbirkorlar uchun 3750 kvadrat metr joy ajratilgan. Ularda tadbirkorlarning 43 milliard so‘m mablag‘i hisobidan 45 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan. Natijada 120 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Biz bunday raqamlarni osongina aytib ketaveramiz. Ammo ularning har biri ortida juda katta mehnat, ishonch, rag‘bat va intilish bor. Masalan, hozir dunyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayon juda murakkab. Bunday vaziyatda har bir mamlakat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, iqtisodiy barqarorlikni saqlash choralarini ko‘radi. Demoqchimizki, bitta massiv uchun mana shunday yirik miqdorda sarmoya ajratish oson emas.

Tadbirkorlar yangi binolarning birinchi qavatiga milliardlab pulini sarmoya qilishi ham bejiz emas. Chunki shu mablag‘ ortig‘i bilan qaytib kelishiga ishonadi. Negaki uylar xaridorgir. Xalqimiz uylarni to‘ldirib yashay boshlashi hamon tadbirkorlar daromadi ko‘payaveradi. Bir tomonda esa ishbilarmonlarga katta imtiyoz va imkoniyatlar berilmoqda. Bu ularni ishini yanada kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratishga rag‘batlantirmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” massivlaridagi uylar nega xaridorgir? Sabab oddiy, u yerda barcha sharoit bor! Masalan, Yakkabog‘ tumanidagi massivda 3,1 kilometr ichimlik suv tarmog‘i uchun 2 ta suv inshooti hamda 8,4 kilometr oqova suv tarmog‘i uchun 1 ta inshoot va 6 kilometr ichki yo‘l qurilgan. Tag‘in 3,8 kilometr issiqlik tarmog‘i tortilib, qozonxona barpo etilgan. Tabiiy gaz uchun 1,5 kilometr quvur tortilib, 6 ta taqsimlash punkti, 50 kVt quyosh panellari va 140 ming litr sig‘imga ega 700 dona geliokollektor o‘rnatildi. Bunday ishlarni yana uzoq sanash mumkin.

Mana shu raqamlarning o‘zini bir joyda jamlab qarasangiz, ulkan bunyodkorlikni his etasiz. Zamonaviy shahar ko‘rinishiga kelgan bu manzil bir paytlar qarovsiz maydon bo‘lganiga ishonmaysiz. Yana bir gap. Mazkur massivda boshqa tuman va shaharlardagidan farqli o‘laroq, yetakchi tadbirkor tashabbusi bilan yirik loyiha asosida ekobozor tashkil etilgan. Qiymati 6 million dollardan ortiq bo‘lgan ushbu majmua uch qavatdan iborat bo‘lib, 80 ta ish o‘rni yaratilgan. Muhimi, bozorda oziq-ovqat mahsulotlari ham, kiyim-kechaklar ham, dam olish va ovqatlanish nuqtalari ham bor.

Sarvar TO‘RAYEV:

— Surxondaryo viloyatining Angor, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo va Termiz tumanlarida “Yangi O‘zbekiston” massivlari bunyod etilgan. Ushbu uylardagi yangi xonadon kalitini qabul qilib olayotgan har bir yurtdoshimiz inson qadrini ulug‘lash yo‘lidagi islohotlardan mamnun.



Yuqorida hamkasblarimiz to‘g‘ri aytdi: massivlardagi kenglik, muhtashamlik, obodlik va saranjom-sarishtalikdan dilingiz yayraydi. Har bir bino-inshootda xalqimizga xos yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyati to‘liq namoyon bo‘layotgandek go‘yo. Sariosiyo, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Angor va Termiz tumanlaridagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarida qad rostlayotgan 5 va 9 qavatli uylar ikki va uch xonadan iborat, zamonaviy hamda shinam. Bu binolar 9 balli zilzilaga chidamli qilib qurilgan.



Har bir xonadonda alohida issiqlik va suv isitish tizimi o‘rnatilgan. Bu xona haroratini mustaqil boshqarish, energiya sarfini 2 barobargacha qisqartirish imkonini beradi. “Yangi O‘zbekiston” massivlarini bunyod etish borasidagi qaror va farmonlar qog‘ozdagina olib kelindi. Mana shu omillarning o‘ziyoq massivlar uzoq kelajakni o‘ylab, puxta reja bilan qurilayotganini anglatadi.

Bugun Surxondaryoda qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivlari misolidagi bunyodkorlik ishlari nafaqat arxitekturada, balki inson qalbida ham yangi nafas, yangi ruh, yangi orzu-umidlarni uyg‘otayotgani shubhasiz. Zero, farovon hayot xalq roziligidan boshlanadi.

emas, balki hayotda, kundalik turmush tarzida aksini topayotgani insonlarda ertangi kunga ishonchni, yurtga muhabbat va islohotlarga ishtiyoqni yanada mustahkamlayapti. Massivlardagi xonadonlarda yaratilgan har bir qulaylik, har bir innovatsion yondashuv xalqning yashash sifati oshishiga, oilaviy osoyishtalik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” massivi va uning atrofidagi obyektlar rejasini tuzishda istiqbolda aholi o‘sishi, hudud infratuzilmasi va ishlab chiqarish kengayishi kabi jihatlar ham nazarda tutilgan. Bu juda muhim omil. Shu bilan birga, massivlarga yondosh hududlarda foydalanishdan chiqqan yer maydonlarini qayta o‘zlashtirish hisobiga issiqxonalar qurish, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari bunyod etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Xususan, Jarqo‘rg‘ondagi “Yangi O‘zbekiston” massivida hozirga qadar 7 ta mikromarkaz, 29 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, massiv hududida 50 qatnovli oilaviy poliklinika, 180 o‘rinli bolalar bog‘chasi, 330 o‘ringa ega maktab va AT markaz qurilgan. Infratuzilma obyektlarini qurish va obodonlashtirish shu bilan yakun topgani yo‘q. Massivga 1,9 kilometr ichimlik suv, 3,9 kilometr oqova suv, 2,3 kilometr issiqlik tarmoqlari, 2,8 kilometr gaz quvuri tortildi. 5 ta transformator o‘rnatildi. Piyodalar yo‘lakchalari qurilib, 4,5 gektar yerga manzarali va mevali daraxtlar hamda 300 gektar dasht hududiga saksovul ekildi.

Jarqo‘rg‘on tumanida qurilishi 2022-yilda boshlangan “Yangi O‘zbekiston” massivida shu yil oxiriga qadar jami 86 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirilishi belgilangan.

Surxon vohasining tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib, joylarda bunyod etilayotgan massivlarda yashil belbog‘lar, bog‘ yaratish, uylar atrofida turli mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekish, ularni sug‘orish tizimiga alohida e’tibor berilyapti. Ochig‘i, bugun bu yerga kelgan kishi odamlari samimiy, atrofi yashillikka burkangan, infratuzilmasi rivojlangan kichik shaharchaga tushib qolgandek sezadi o‘zini. Massiv hududi yaqin vaqtlargacha biyday cho‘l edi. Shu yerdan o‘tib-qaytayotganlar cho‘lda ham ko‘p qavatli uy bo‘ladimi, yozning issig‘ida, qishning qora sovug‘ida qanday yashash mumkin degan savollar berardi. Yashil belbog‘ ana shu masalaga tabiiy yechim bo‘ldi. Suv, gaz, elektr

Sariosiyo tumanining Lutfikor mahallasida 31 gektardan ortiq maydonda ham “Yangi O‘zbekiston” massivi bunyod etilyapti. Bu yerda 2026-yil oxirigacha 5, 7, 9 qavatli, jami 2322 xonadonga ega 78 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshiriladi. Aholi ancha zich yashaydigan hududlar uchun bunday massivlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Uy-joylarning sifati va tannarxi ham xalqning imkoniyatiga mos ekani e’tiborga molik.

Angor tumanidagi Sharq guli mahallasida 11,2 gektarda 1005 xonadonli jami 43 ta uy qurilishi reja qilingan. Bu yerda ham energiya tejamkor materiallar ishlatilyapti, ekohududlar yaratishga, elektr, suv, gaz va yo‘l tarmoqlarini tortishdagi yangi standartlarga jiddiy e’tibor berilgan. Shu ma’noda, yangi massivlarni energiya tejamkorlik jihatdan ham namuna qilib ko‘rsatish mumkin.

Minajatdin QUTLIMURATOV:

— Insonning baxti, avvalo, tinch va osoyishta, farovon xonadondan boshlanadi. Shu bois, xalqimiz uyni vatan ichidagi vatan deya qadrlaydi. Yurtning obodligi esa dilni ravshan qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” massivi shunday ezgu maqsadlar mahsulidir. Mazkur massivda istiqomat qilayotgan Nigora Zoyirova hayotidan rozi ekanini bot-bot takrorlaydi. Zamonaviy, barcha qulayliklarga ega xonadonda farzandlari bilan baxtli umr kechirmoqda.

— Yangi uyga ko‘chib kelganimizdan buyon hayotimiz butunlay o‘zgardi, — deydi Nigora Zoyirova. — Xonadonimiz keng va yorug‘. Elektr, tabiiy gaz, ichimlik suv kabi barcha qulayliklar muhayyo. Atrof obod, ko‘chalar keng va ravon. Farzandlarimiz xavfsiz muhitda o‘ynab, ta’lim-tarbiya olmoqda. Bunday e’tibor va g‘amxo‘rlik uchun minnatdor bo‘lmaslik mumkin emas!

Qonliko‘l tumaniga kirib kelishingiz bilan ko‘p qavatli uylar ko‘zga tashlanadi. Ilgari tumanda bunday uylar bo‘lmagan. Katta magistral yo‘lning bo‘yida iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaga ega 11 ta 5 qavatli uy qad rostlagan. Qulay sharoitlarga ega uylarda 330 xonadon bor. Bu bitta tumandagi ana shuncha oilaning quvonchi, baxtli hayot tarzining bir ko‘rinishi.

— Qo‘ng‘irot tumanidan ushbu ko‘p qavatli uylarning biriga oilamiz bilan ko‘chib o‘tdik. Ish joyim Qonliko‘l tumanida. Imtiyozli kredit hisobidan 3 xonali uyni 20 yilga sotib oldik, — deydi “Yangi O‘zbekiston” massivida istiqomat qiluvchi Furqat Rahimberdiyev. — Yosh oilalar uchun juda qulay. Issiq va sovuq suv bor. Qo‘shnilar ham yosh oilalar. Bir-birimiz bilan kirdi-chiqdi qilamiz. Muhimi, maktab, bog‘cha yonimizda.

Qonliko‘l tumani Navro‘z mahallasidagi “Yangi O‘zbekiston” massivida 12 milliard 830 million so‘m evaziga 3 qavatli, 330 o‘ringa ega yangi maktab qurilgan. U eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlagan. Yashil qoplamali stadion, sport zali, oshxona, chiroyli sinflar ushbu massivda istiqomat qiluvchi aholi bolalariga xizmat qilmoqda. Maktab 2024-2025-o‘quv yilida foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, maktabning yonginasida 7,7 milliard so‘mga qurilgan, 180 o‘ringa mo‘ljallangan bog‘cha ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Yangi massivlarning muhim jihatlaridan biri hududda alohida ta’lim maskanlari barpo etilayotganidir.

— Qonliko‘l tumanidagi 25-umumta’lim maktabiga Hindistondan kelib dars o‘tyapmiz, — deydi xorijlik mutaxassis Saini Akansha xonim. — Turmush o‘rtog‘im Amir Ali bilan “Yangi O‘zbekiston” massividagi ko‘p qavatli uylarning birida yashayapmiz. Xonalari toza, barcha qulayliklar mavjud. Asosiysi, maktabning yonginasida.

Massiv yonida yirik korxonalardan biri — “Kanteks invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati joylashgan. Ip-kalava ishlab chiqaruvchi ushbu korxona 2019-yil ishga tushirilgan bo‘lib, yiliga 9 ming tonna mahsulot tayyorlaydi. Korxonada 600 ga yaqin mahalliy aholi ish bilan ta’minlangan. Germaniya, Turkiya va Hindistondan olib kelingan asbob-uskunalar o‘rnatilgan korxona to‘liq quvvatda ishlamoqda. Jamoaning aksariyatini yoshlar tashkil etadi.

Qonliko‘l tumani ilgari ijtimoiy-iqtisodiy holati og‘ir tumanlardan biri edi. O‘zbekistondagi yangilanishlar sabab u bugun butunlay o‘zgardi. Korxonalar ish boshlab, tumanning tadbirkorlar sinfi shakllanib boryapti. Bu iqtisodiyot bilan birga ijtimoiy muhit ham yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Bir paytlar Qonliko‘lda tug‘ilgan yoshlar shaharlarga ko‘chib ketish orzusida yashardi. Endi ular o‘z uyi oldidagi maktabda xorijlik mutaxassislardan dars olmoqda. “Yangi O‘zbekiston” massivlari kabi yirik loyihalar esa ana shu yangilanishlar ruhiga yanada ko‘tarinkilik bag‘ishlamoqda.

Suhbatni
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Boboravshan G‘OZIDDINOV
uyushtirdi.

Bugun turizmga kiritilayotgan investitsiya faqat mehmonxona yoki turistik obyekt barpo etish bilan cheklanmaydi. U transport, qurilish, xizmat ko‘rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa ko‘plab tarmoqlarda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz.uz_news yuz.uz_news

Suv va hayot

BEPUL SUV MANBAYI

> Xonadon tomining sathi taxminan 200 kvadrat metr. Uning to‘rtta burchagida yomg‘ir suvini chiqaruvchi tarnovlar mavjud. Hozircha ulardan faqat bittasi yig‘ish tizimiga ulandi. Aprelda yomg‘ir yoqqanida bir kunda faqat shu bitta tarnovdan taxminan 2 tonna, ya’ni 2000 litr suv yig‘ildi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bir xonadondan boshlanadigan ulkan o‘zgarish

Suv haqida odatda u kamayganda o‘ylaymiz. Jo‘mrakdan suv oqayotganida esa qadrini yetarlicha his qilmaymiz. Aslida, har kuni behuda oqayotgan bir necha litr suv bir oyda yuzlab, bir yilda esa minglab litrga aylanadi. Bugun biz uchun oddiy tuyulayotgan obihayot masalasi ertaga butun jamiyatning eng katta muammolaridan biriga aylanishi mumkin. Shuning uchun suv tejashni tugaganidan keyin emas, hozirdan boshlash lozim.



Muhsiddin NIZOMIDDINOV, Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi deputati

Parkent tumanidagi xonadonlardan birida aynan shu g‘oya asosida kichik, ammo amaliy tajribani boshladik. Maqsadimiz oddiy — tomdan tarnov orqali oqib tushayotgan yomg‘ir suvini shunchaki kanalizatsiyaga yoki ko‘chaga oqizib yubormay, yig‘ish, saqlash va ichimlik suv talab qilmaydigan ehtiyoj uchun qayta foydalanish edi. Tajriba oddiy, ammo natijalari bu masalaga boshqacha qarash kerakligini ko‘rsatdi. Xonadon tomining sathi taxminan 200 kvadrat metr. Uning to‘rtta burchagida yomg‘ir suvini chiqaruvchi tarnovlar mavjud. Hozircha ulardan faqat bittasi yig‘ish tizimiga ulandi. Aprelda yomg‘ir yoqqanida bir kunda faqat shu bitta tarnovdan taxminan 2 tonna, ya’ni 2000 litr suv yig‘ildi.

Tasavvur qiling: avval ko‘chaga oqib ketadigan suvning o‘zi birgina yomg‘irda 2 tonnali zaxiraga aylandi. Bu natija bizni yana bir savol xususida o‘ylashga majbur qildi: agar bitta burchakdan 2 tonna suv yig‘ilayotgan bo‘lsa, tomning to‘rt burchagini yagona tizimga birlashtirsak, qancha suvni saqlab qolishimiz mumkin? Shu tufayli loyihamizning keyingi bosqichida tomning to‘rt burchagidan tushadigan suvni bitta — markaziy yig‘ish nuqtasiga olib kelishni rejalashtirdik.

Bu shunchaki suv yig‘ish emas, balki xonadonning o‘zida kichik suv zaxirasini yaratish deganidir. Ichimlik suvni texnik ehtiyojlarga sarflash zarur. Iste’mol qilib bo‘lmaydi. Chunki bunday suvni ichimlik maqsadida ishlatish uchun tegishli tozalash, dezinfeksiya va sanitariya talablari bajarilishi kerak. Ammo kundalik hayotimizda suv talab qiladigan juda ko‘p boshqa ehtiyojlar bor. Masalan, kir, yuz-qo‘l va avtomobil yuvish, hovliga suv sepish, ekin va tomorqani sug‘orish, chorvani sug‘orish, quyosh panellarini tozalashda foydalanish mumkin. Demak, bir tomondan ichimlik suvni asrayapmiz. Ikkinchi tomondan esa yomg‘ir suvini foydali resursga aylantiryapmiz.

Loyihaning yana bir muhim jihati, yig‘ilgan suvni kerakli joylarga yetkazish uchun nasosdan foydalanilmoqda. U esa quyosh panellari ishlab chiqaradigan elektr energiyasi yordamida ishlaydi. Ya’ni bir tizimda ikki tabiiy resursdan foydalaniladi. Natijada xonadonning suv va energiya tejamkorligi yaxlit tizimga birlashtiriladi.

Bu qanchalik foydali?

Ko‘pincha yangi g‘oyalar haqida gapirganda “Bu qanchalik foydali?” degan savol tug‘iladi. Tajribamizda bunga aniq raqamlar bilan javob berish mumkin.

Tizim o‘rnatilishidan avval xonadonda ichimlik suvga oyiga taxminan 150 ming so‘m to‘lanardi. Tizim o‘rnatilgandan so‘ng bu mablag‘ 56 ming so‘mgacha kamaydi. Demak, bir oyda 94 ming so‘m tejalmoqda. Bir yil hisobida esa taxminan 1 million 128 ming so‘mni iqtisod imkoniyati paydo bo‘ldi.

Bundan tashqari, sug‘orish, avtomobil yuvish, hovliga suv sepish, quyosh panellarini tozalash kabi ehtiyojlarda ishlatilayotgan suvning qiymati bu hisobga to‘liq kiritilmagan. Shuning uchun loyihaning real iqtisodiy samarasi faqat suv to‘lovidagi kamayishdan ham kattaroq.

Loyihaga sarflangan mablag‘

Tizimni yo‘lga qo‘yish uchun taxminan 3 million 700 ming so‘m sarflandi. Ikki dona 1 tonnali bochka — 1 million so‘m, nasos — 1 million 200 ming so‘m, quvurlar va tomchilatib sug‘orish uchun zarur jihozlar — 1 million so‘m, filtr — 200 ming so‘m, ish haqi — 300 ming so‘m.

Bu mablag‘ni faqat dastlabki xarajat sifatida tushunmaslik kerak. Chunki qurilma yillar davomida ishlashi va suv xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Faqat ichimlik suvga to‘lovning kamayishi hisobiga dastlabki xarajatning qoplanish muddati taxminan 3-yil atrofida bo‘lishi mumkin. Boshqa xo‘jalik ehtiyojlaridagi tejamkorlik ham hisobga olinsa, loyiha yanada manfaatli bo‘ladi.

















Endi masalaga bitta xonadon emas, butun O‘zbekiston nuqtayi nazaridan qaraylik. Mamlakatimiz aholisi 39 milliondan ziyod. Agar bir kishiga kuniga o‘rtacha 99 litr ichimlik suv to‘g‘ri kelsa, mamlakat miqyosida har kuni 3,861 million kub metr suv sarflanadi. Bir yilda esa taxminan 1,409 milliard kub metr bo‘ladi. Bu raqam O‘zbekistondagi barcha suv iste’molining rasmiy umumiy hajmi emas. Faqat aholi soni va bir kishiga 99 litr kunlik iste’mol ko‘rsatkichidan kelib chiqadigan hisob-kitob, xolos.

> Tizim o‘rnatilishidan avval xonadonda ichimlik suvga oyiga taxminan 150 ming so‘m to‘lanardi. Tizim o‘rnatilgandan so‘ng bu mablag‘ 56 ming so‘mgacha kamaydi. Demak, bir oyda 94 ming so‘m tejalmoqda. Bir yil hisobida esa taxminan 1 million 128 ming so‘mni iqtisod imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ammo uning o‘zi ham muammoning ko‘lamini ko‘rsatadi. Agar shu suvning hatto kichik bir qismini tejash imkoniyati yaratilsa ham mamlakat miqyosida sezilarli natijaga erishiladi. Suv ta’minotiga tushadigan bosim kamayadi.

Yashirin imkoniyat

O‘zbekiston hududida yog‘ingarchilik miqdori hududlarga qarab farq qiladi. Lekin har bir hududda yomg‘ir yog‘adi. Bugun esa ko‘plab xonadonlarda tomdan tushayotgan yomg‘ir suvi foydalanilmay oqib ketadi. Bu yerda katta imkoniyat yashiringan. Tom aslida faqat uyni yomg‘irdan himoya qiladigan konstruksiya emas, balki suv yig‘ish maydoni ham bo‘lishi mumkin. Agar tomdan tushadigan suv tarnov orqali rezervuarga yo‘naltirilsa, filtrdan o‘tkazilsa va xavfsiz foydalanish tizimi yaratilsa, xonadon o‘zining kichik suv zaxirasiga ega bo‘ladi. Buni qurilayotgan yangi uy-joy loyihalarida aynan shu imkoniyatni hisobga olish kerak.

Agar bunday tizim oddiy xonadonda 200 kvadrat metrli tomda samara berayotgan bo‘lsa, katta tomli maktab, bog‘cha yoki poliklinikada uning imkoniyati yanada yuqori bo‘ladi. Maktab tomidan yig‘ilgan yomg‘ir suvini ichimlik uchun emas, balki hovli, yashil hududlar va texnik ehtiyojlar uchun ishlatish mumkin. Bog‘chalarda ham shu tamoyilni qo‘llash mumkin. Poliklinika va boshqa ijtimoiy obyektlarda esa suv sarfining muayyan qismini yomg‘ir suviga o‘tkazish orqali texnik maqsadda ishlatiladigan ichimlik suvga talabni kamaytirish mumkin. Shu tufayli ushbu tashabbusni faqat xonadonlar uchun emas, ijtimoiy obyektlar uchun ham alohida pilot loyiha sifatida sinab ko‘rish zarur.

Loyihaning biz uchun eng muhim jihatlaridan biri shundaki, ish faqat qurilmani o‘rnatish bilan to‘xtab qolmayapti. Amaliy tajriba bilan bir vaqtda qonunchilik bo‘yicha ham ish olib borilmoqda. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasidagi deputatlar bilan birga yomg‘ir suvini yig‘ish, undan samarali foydalanish va suvni tejash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qonunchilikka takliflar tayyorlash ishlari bajarilmoqda. Bu juda muhim bosqich. Chunki bitta xonadon o‘z tashabbusi bilan tizim o‘rnatishi mumkin. Ammo bunday amaliyotni minglab va millionlab xonadonlarga yetkazish uchun huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar zarur.

Shu bois, biz o‘z tajribamizni qonunchilik takliflari bilan bog‘lashga harakat qilyapmiz. Loyihaning g‘oyasini rivojlantirish, tizimli shaklga keltirish, takliflarni tahlil qilish va kelgusidagi yo‘nalishlarni belgilash juda muhim.

Maqsad qonun yozishning o‘zi emas

Bu yerda asosiy maqsad yangi talablarni shunchaki joriy qilish emas. Avvalo, savolga javob topish kerak. Qanday qilib aholi uchun qulay, arzon va samarali yomg‘ir suvini yig‘ish tizimini yaratamiz? Buning uchun pilot loyihalar kerak. Masalan, dastlab ayrim mahallalarda xonadonlar tanlanadi. Ularning tomi maydoni, yil davomida yig‘ilgan suv miqdori, suv sarfi, iqtisodiy tejamkorligi va qurilmaning xizmat ko‘rsatish xarajati o‘rganiladi. Keyin natijalar taqqoslanadi. Shundan so‘ng eng samarali modelni boshqa hududlarga joriy etish mumkin.


Loyihaning yana bir yo‘nalishi innovatsiya. Ushbu loyiha bo‘yicha patent olganmiz. Endi bu tajribani yanada takomillashtirib, aholiga qulayroq, ixchamroq va samaraliroq yangi foydali qurilma yaratish hamda unga belgilangan tartibda patent olish harakatidamiz. Maqsad faqat patent hujjatiga ega bo‘lish emas, balki odamlar real hayotda foydalanadigan qurilma yaratish. U oddiy, narxi imkon qadar arzon bo‘lishi kerak. O‘rnatish oson, texnik xizmat ko‘rsatish esa qulay bo‘lishi lozim.

Bugun Parkentdagi bir xonadonda bu tizim ishlamoqda. Bir yomg‘irda 2 tonna suv. Bir oyda 94 ming so‘m tejamkorlik. Bir yilda 1 million 128 ming so‘m. Lekin bu raqamlarning eng katta qiymati pulda emas, balki shunday tajriba mavjudligida. Biz “buni qilish mumkinmi?” degan savolga endi nazariy emas, amaliy javob bera olamiz. Ha, mumkin. Yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash, texnik ehtiyojlarga yo‘naltirish va hatto nasos orqali kerakli joyga yetkazish mumkin.

Endi navbatdagi savol: buni qanday qilib minglab xonadonlarga yetkazamiz? Bugunning eng muhim vazifasi ham shu. Chunki suv masalasi ertangi kunning muammosi emas. U bugunning muammosi. Bugun yomg‘ir yog‘ayotgan paytda biz suvni oqizib yuborsak, ertaga qurg‘oqchilik kelganda uni izlashimiz tayin. Shu bois, ertaga suvni qidirmaslik uchun bugun yomg‘irni yig‘aylik.

IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM DRAYVERI

Sayyohlik



2026-yilning yanvar-avgust oylarida O‘zbekistonga 9,1 million xorijlik sayyoh kelgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 21,2 foizga ko‘p.

Mazkur raqamlar mamlakatda turizm sohasi jadal sur’atda rivojlanib, iqtisodiyotdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Zero, turizm salohiyatining o‘sishi faqat sayyohlar soni ko‘payishi bilan cheklanmaydi. U transport, joylashtirish, umumiy ovqatlanish, savdo, madaniy xizmatlar va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda iqtisodiy faollikning oshishiga, yangi ish o‘rinlari va investitsiya imkoniyatlarining paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Aslida, bugun turizmni faqat sayyohlarni qabul qilish sohasi sifatida baholash yetarli emas. U mamlakat iqtisodiyotida xorijiy valyuta tushumini ko‘paytirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini ishga solishga xizmat qilayotgan muhim tarmoqlardan biriga aylanmoqda.

Bu jarayonni xorijlik sayyohlar oqimi dinamikasi ham yaqqol ko‘rsatadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yili mamlakatimizga 6,6 million chet ellik sayyoh kelgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 10 milliondan oshgan. 2025-yil yakunlariga ko‘ra esa O‘zbekistonga 11,7 million xorijlik sayyoh kelgan.

Bir necha yil ichida sayyohlik oqimining bunday sezilarli o‘sishi, avvalo, xalqaro transport aloqalarining kengayishi bilan uzviy bog‘liq. Jumladan, 2026-yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston aeroportlarida 64 ming 831 ta reys amalga oshirilgan. Shundan 47 ming 371 tasi xalqaro reyslar bo‘lib, ular soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12 foiz oshgan. Xalqaro reyslardan 6,7 million yo‘lovchi foydalangan. Bu ko‘rsatkich ham yillik hisobda 15,4 foiz ko‘paygan.

Bu yerda o‘zaro bog‘liq muhim jarayon kuzatiladi: turistlar oqimi ko‘paygani sari yangi aviaqatnovlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Aviaqatnovlar geografiyasining kengayishi esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonga yangi mamlakatlardan turistlar kelishini osonlashtiradi. Shu tariqa aviatsiya va turizm bir-birini rag‘batlantiruvchi yagona iqtisodiy tizim sifatida shakllanmoqda.

2026-yili qator xalqaro yangi yo‘nalishlarning ochilishi ham ana shu jarayonning davomi bo‘ldi. Jumladan, “Etihad Airways” aviakompaniyasining Abu-Dabi — Toshkent yo‘nalishida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovi yo‘lga qo‘yildi. Ilk reys 10-avgust kuni amalga oshirildi.

Turistik faollikning o‘sishi poytaxt bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Hududiy aeroportlardagi ko‘rsatkichlar ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Xususan, Termizda yo‘lovchi oqimi 52, Urganchda 24, Nukusda esa 23 foiz oshgan.

Bu ko‘rsatkichlar hududlarning sayyohlik salohiyatini ishga solish uchun imkoniyatlar tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Termizdagi tarixiy-arxeologik meros, Xorazmdagi qadimiy shaharlar, Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos tabiiy va madaniy obyektlari xorijlik sayyohlar uchun yangi turizm takliflarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Sayyohlik oqimining ortishi joylashtirish vositalari infratuzilmasi rivojida ham o‘z aksini topmoqda. 2026-yil yanvar-iyul oylarida mamlakatimizda 22 ming 296 o‘rinli 705 ta yangi joylashtirish vositasi barpo etildi. Natijada ularning umumiy soni 7440 taga, joylar soni esa 202,6 mingtaga yetdi.

Bunday o‘sish turizm sohasida talab va taklif bir vaqtning o‘zida kengayib borayotganini anglatadi. Bir tomondan, xorijlik sayyohlar soni ortib, yangi xizmatlarga talabni shakllantirmoqda. Ikkinchi tomondan, yangi mehmonxonalar, mehmon uylari va boshqa joylashtirish vositalarining tashkil etilishi mamlakatning yanada ko‘p sayyohlarni qabul qilish imkoniyatini oshirmoqda.

Sohadagi eng muhim iqtisodiy natija esa turizm xizmatlari eksportining o‘sishida namoyon bo‘lmoqda. 2026-yil yanvar-iyul oylarida uning hajmi 3895,7 million AQSH dollariga yetgani va bir yilda 56 foiz oshgani turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni sezilarli kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Chet ellik sayyoh yurtimizga kelganida turizm obyektlarini tomosha qilish bilan birga mehmonxonada yashaydi, restoran va kafelarda ovqatlanadi. Transport xizmatlaridan foydalanadi. Madaniy tadbirlarda ishtirok etadi. Mahalliy mahsulot va suvenirlar xarid qiladi. Shu jihatdan turizm xizmatlari eksportining o‘sishi ko‘plab sohalarda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning ortishiga olib keladi.

Shuning uchun bugun turizm sohasidagi natijalarni bir-biridan alohida ko‘rsatkichlar sifatida emas, balki yagona iqtisodiy zanjir sifatida baholash muhim. Ko‘proq aviaqatnovlar — ko‘proq turistlar, ko‘proq turistlar — yangi infratuzilmaga talab, yangi infratuzilma — investitsiyalar uchun imkoniyat, investitsiyalar esa hududlarda yangi xizmatlar va ish o‘rinlarini ochish uchun zamin hozirlaydi.

Davlatimiz rahbari boshchiligida turizm va investitsiya sohalaridagi keng ko‘lamli islohotlar ham aynan shu jarayonlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Har bir hududda alohida dasturlarning qabul qilinishi, turizm hududlarining rivojlantirilishi, infratuzilma yangilanishi va investitsiya uchun sharoitlarning kengaytirilishi sohaning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Endi asosiy vazifa erishilgan miqdoriy o‘sishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdir. Buning uchun yangi turistik takliflarni rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, hududlarda zamonaviy infratuzilmani yanada kengaytirish, xalqaro aviaqatnovlar geografiyasini boyitish va investitsiya loyihalarini ko‘paytirish muhim.

Zero, bugun turizmga kiritilayotgan investitsiya faqat mehmonxona yoki turistik obyekt barpo etish bilan cheklanmaydi. U transport, qurilish, xizmat ko‘rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa ko‘plab tarmoqlarda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Shu ma’noda, turizm O‘zbekiston iqtisodiyotida tobora ko‘p tarmoqlarni birlashtirayotgan, xizmatlar eksportini oshirayotgan va yangi o‘sish nuqtalarini shakllantirayotgan drayverga aylanmoqda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Ajdodlarimiz ma’rifatni ozodlikka eltuvchi yo‘l deb bilgan. Bugun biz bu yo‘lning zamonaviy davomini laboratoriyada, universitet auditoriyasida, muhandislik maktabida va Yoshlar texnoparklarida ko‘rmoqdamiz.

KO‘ZGU 5

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 16-sentabr, 191-son





O‘ZBEKISTON – JANUBIY KOREYA ALOQALARI:

AGRAR SOHADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY TA’LIM VA ILMIY TADQIQOTLAR

Agrotarmoq

Bugungi kunda O‘zbekiston – Janubiy Koreya sherikligining ustuvor yo‘nalishlari qatorida ilm-fan, ta’lim, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar bilan birga agrar soha ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, raqamli va “aqlli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, resurs tejamkor yechimlarni tatbiq etish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasidagi qo‘shma tashabbuslar izchil kengayib bormoqda.





Narzullo OBLOMURODOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori

Toshkent davlat agrar universitetining Koreya Respublikasi yetakchi universitetlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va texnologik kompaniyalari bilan amalga oshirayotgan loyihalari ana shu strategik sheriklikning agrar ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi amaliy natijalarini ifoda etadi.

Mazkur hamkorlik agrivoltaik texnologiyalar va “aqlli” dehqonchilikni rivojlantirish, agrar soha uchun professional kadrlar tayyorlash, sertifikatlash tizimini takomillashtirish hamda sun’iy intellekt asosida asalarichilikni rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Ayni paytda TDAU va Janubiy Koreya hamkorligida uchta yirik loyiha bo‘yicha tizimli ishlanmoqda. Ushbu tashabbuslar universitetning ilmiy tadqiqot salohiyatini mustahkamlash, ilg‘or xorijiy tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, zamonaviy ilmiy va o‘quv infratuzilmasini yaratish hamda innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishga xizmat qilmoqda.

Koreya Respublikasining Rasmiy taraqqiyot ko‘magi (ODA) dasturi doirasida “O‘zbekistonda uglerodsiz paxtachilik uchun agrivoltaik “aqlli” fermer xo‘jaligi majmuasini rivojlantirish” loyihasi tayyorlanmoqda. Loyiha O‘zbekiston Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda Toshkent davlat agrar universiteti hamkorligida ishlab chiqilmoqda. Loyihada Janubiy Koreya tomonidan Atrof-muhit sanoati va texnologiyalari instituti (KEITI), “ENVELOPS Co., Ltd.”, “Shinhan A-Tech”, “Reserve Carbon” hamda “New Climate Innovations Center” kabi tashkilotlar ishtirok etmoqda.

Loyihaning asosiy maqsadi paxta yetishtirish, qayta tiklanuvchi energiya, suv tejovchi sug‘orish va raqamli boshqaruv texnologiyalarini yagona “Smart Farm” tizimida birlashtirishdan iborat. Agrivoltaik texnologiya bir yer maydonidan bir vaqtning o‘zida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va quyosh energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda loyiha vakillari bilan universitetning ilmiy tadqiqot salohiyatidan samarali foydalanish, tajriba maydonlarini o‘rganish, zarur ilmiy-texnik ma’lumotlarni shakllantirish hamda ilg‘or texnologiyalarni O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish masalalari muhokama qilinmoqda.

Toshkent davlat agrar universiteti loyiha doirasida tajriba maydoni va ilmiy tadqiqot hamkori sifatida belgilangan. Universitet olimlari tuproqshunoslik, irrigatsiya, paxtachilik, agroekologiya, qayta tiklanuvchi energetika va raqamli qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida ilmiy-uslubiy ko‘mak ko‘rsatishi ko‘zda tutilmoqda.

Hozirgi vaqtda loyiha “Pre-Feasibility Study” — dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash bosqichida. Ushbu jarayonda TDAU tajriba xo‘jaligidagi loyiha hududi ko‘zdan kechirilib, yer maydoni holati, tuproq tarkibi, suv manbalari, iqlim ko‘rsatkichlari va mavjud infratuzilma bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar to‘plandi. Loyiha konsepsiyasiga muvofiq, TDAU hududida taxminan 1 MV quvvatga ega agrivoltaik pilot tizim, qariyb bir gektar maydonni qamrab oluvchi “Smart Farm” majmuasi hamda zamonaviy “aqlli” sug‘orish tizimini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

“Smart Farm” majmuasida tuproq namligi, havo harorati, namlik darajasi, quyosh radiatsiyasi, suv sarfi va ekinlarning rivojlanish holatini raqamli monitoring qilish imkonini beruvchi zamonaviy vositalardan foydalanish rejalashtirilmoqda. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida sug‘orish va agrotexnik tadbirlarni aniq boshqarish, resurslar sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

TDAU va Janubiy Koreyaning Chungnam milliy universiteti hamkorligida “O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va professional kadrlarni tayyorlash bo‘yicha loyiha” ham amalga oshirilmoqda. Uning asosiy maqsadi O‘zbekistonda agrar ta’lim sifatini oshirish, professional mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish va qishloq xo‘jaligi sohasida samarali sertifikatlash tizimini shakllantirishdan iborat.

Loyiha doirasida bog‘dorchilik va tuproqshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv dasturlari hamda sertifikatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, agrar soha uchun mutaxassislar tayyorlash, professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning bilim hamda amaliy ko‘nikmalarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur loyihaning muhim amaliy natijalaridan biri sifatida TDAUda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan “aqlli” issiqxona barpo etildi. Shuningdek, universitetda bog‘dorchilik yo‘nalishidagi ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus bog‘dorchilik laboratoriyasi ochildi. Mazkur obyektlar talabalar, magistrantlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishi hamda ilmiy tajribalar qilishi uchun zamonaviy o‘quv-tadqiqot bazasini yaratdi.

Ushbu loyiha doirasida yaratilgan zamonaviy infratuzilma va o‘quv mexanizmlari TDAUda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, agrar mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hamda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Toshkent davlat agrar universiteti va Janubiy Koreyaning Kyungpook milliy universiteti hamkorligida “O‘zbekistonda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda “Smart-AI: “aqlli” asalari oilasi tizimi texnologiyasini qo‘llash hamda asalarichilik resurslarini rivojlantirish” mavzusida xalqaro ilmiy-texnik loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihaning asosiy yo‘nalishi zamonaviy raqamli vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida asalari oilalari holatini kuzatish, asalarichilik xo‘jaliklarini samarali boshqarish hamda sohaning ilmiy-texnologik imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

“Smart-AI” tizimlaridan foydalanish orqali asalari oilalari faolligi, yashash muhiti va rivojlanish ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib borish, ehtimoliy muammolarni erta aniqlash hamda asalarichilik resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Loyiha O‘zbekistonda “aqlli” asalarichilik texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish va mahalliy sharoitga moslashtirish, ilmiy tadqiqotlar qilish, mutaxassislarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish hamda asalarichilik mahsulotlari sifati va samaradorligini yaxshilash uchun ilmiy-amaliy asos yaratishga xizmat qilmoqda.

TDAU va Janubiy Koreya oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik faqat qo‘shma loyihalar bilan cheklanib qolmay, akademik va ilmiy almashinuv yo‘nalishida ham izchil rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda ushbu mamlakatning yuqorida nomi qayd etilgan ikki universitetidan bog‘dorchilik, “aqlli” issiqxona texnologiyalari, tuproqshunoslik hamda ekologiya yo‘nalishlari bo‘yicha 10 dan ortiq professor TDAUning ta’lim va ilmiy tadqiqot jarayonlariga jalb qilindi. Ular talabalarga ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, zamonaviy tadqiqot usullarini tatbiq etish, qo‘shma ilmiy izlanishlarni rivojlantirish hamda TDAU professor-o‘qituvchilari bilan ilg‘or tajriba almashishda faol ishtirok etdi.

Mazkur hamkorlik doirasidagi ma’ruzalar, ilmiy seminarlar va qo‘shma tadqiqotlar universitetda xalqaro ta’lim muhitini shakllantirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda.

TDAU va Janubiy Koreya tashkilotlari hamkorligidagi uchta loyiha o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Agrivoltaik “Smart Farm” loyihasi qayta tiklanuvchi energiya, suv tejovchi texnologiyalar va kam uglerodli paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan. Chungnam milliy universiteti bilan amalga oshirilayotgan loyiha agrar ta’lim, professional kadrlar tayyorlash va sertifikatlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Kyungpook milliy universiteti bilan hamkorlikdagi “Smart-AI” loyihasi esa asalarichilikni sun’iy intellekt va raqamli monitoring texnologiyalari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu loyihalar natijasida TDAUda zamonaviy ilmiy va o‘quv infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro tajribaga ega mutaxassislar tayyorlash, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda innovatsion ishlanmalarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.



Fazliddin MO‘MINOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig‘i

Prezidentimiz mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi dedi. Mazkur davrni faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali bunyod etish mumkinligini qayd etdi. Shu maqsadda kelgusi yillarda mamlakatimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dastur amalga oshiriladi.



Nuqtayi nazar

MILLIY YUKSALISH TAYANCHI





USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Birinchi milliy dastur bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishga qaratilgan. Bu bejiz emas. Boisi, zamonaviy dunyoda taraqqiyotning bosh manbai inson tafakkurida, eng qimmat kapital esa bilim, kashfiyot va yangilik yaratish qobiliyatida ko‘rilmoqda.

Shu o‘rinda so‘nggi o‘n yil ilm-fan va innovatsiyalar milliy taraqqiyot markaziga ko‘tarilgan davr bo‘lganini qayd etish kerak. Eng muhimi, bu pallada yangi ilmiy muhit, yoshlarning iqtidoriga e’tibor va mamlakatning kelajak modeli shakllana boshladi.

Ilm-fan poydevori — sifatli ta’lim va keng qamrovli iste’dodlar zaxirasi. So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi oliy ta’lim tashkilotlari soni sezilarli darajada oshdi. Yoshlarni oliy ta’limga qamrab olish darajasi 9 foizdan 44 foizga yetdi. Bu o‘zgarishlarga oddiy statistika sifatida qarash xato bo‘ladi. Ilgari poytaxtga yoki yirik shaharga borish imkoni bo‘lmagan ko‘plab yoshlar uchun o‘z hududida oliy ma’lumot olish, ilmiy to‘garakka qatnash, laboratoriyada ishlash va startap boshlash imkoni vujudga keldi. Nodavlat va xorijiy oliygohlar kirib kelishi tanlovni kengaytirib, raqobat muhitini kuchaytirdi.

Ilmiy salohiyat ham miqdor va tarkib jihatidan o‘sdi. Respublika bo‘yicha ilmiy darajali pedagoglar ulushi 32,7 foizdan 52 foizga yetdi. 2026-yilda doktoranturaga ajratilgan kvotalar 5300 tani tashkil etdi. Bu minglab yosh tadqiqotchilar uchun ilmni kasbiy faoliyat sifatida tanlash imkoni kengayganini anglatadi.

Yangi bosqichning eng muhim belgisi ilmiy natijani amaliy qiymatga aylantirishga talab kuchayganidir. 2025-yilning o‘zida umumiy qiymati 592,9 milliard so‘m bo‘lgan 824 ta loyiha moliyalashtirildi (shundan 335 tasi yangi ilmiy loyiha). Demak, bir yilda 757 ta yangi va davomli loyiha uchun qariyb 795 milliard so‘mlik moliyaviy resurs safarbar etildi. Bu mablag‘ fundamental bilimdan tortib, sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, energetika va raqamli texnologiyalar uchun amaliy yechimlargacha bo‘lgan keng yo‘nalishlarni qamrab oldi.

Natijalarning iqtisodiy samarasi ham ko‘rina boshladi. 2025-yilda 51,83 milliard so‘mlik innovatsion mahsulot va xizmatlar tijoriylashtirilib, davlat byudjetiga 6,2 milliard so‘m soliq tushdi. Ichki va tashqi bozorlarda tijoriylashtirilgan yangi ishlanmalar soni 321 taga, ilm-fan va innovatsion faoliyat asosida yaratilgan yangi ishlanma va texnologiyalar soni 252 taga yetdi.

Zamonaviy uskunasiz yetuk tadqiqot o‘tkazib bo‘lmaydi. Shu bois, ilmiy tashkilotlarni laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash uchun 3,48 million dollarlik 133 ta asbob-uskunani yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzildi. Bu jarayonning keyingi muhim bosqichi mamlakatdagi laboratoriyalardan bir muassasaning yopiq mulki sifatida emas, tadqiqotchilar, universitetlar va korxonalar ishlata oladigan umummilliy ilmiy infratuzilma sifatida samarali foydalanishdir.

Ilm-fanning haqiqiy samarasi hududlar hayotiga kirib borganda seziladi. So‘nggi yillarda texnologik parklar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va innovatsiya markazlarini qamrab olgan hududiy innovatsion infratuzilmalar soni 67 taga yetdi. Hududlarni innovatsion rivojlantirish uchun 2021-yildan 28 ta innovatsion tuman belgilanib, 214 ta ilmiy, 102 ta startap va 130 ta tijoriylashtirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu obyektlar yoshlarni o‘qitish, g‘oyalarni saralash, prototip tayyorlash, investor bilan uchrashtirish va kichik ishlab chiqarishni boshlash uchun mahalliy tayanch nuqtalariga aylanmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida ilmiy-tadqiqot stansiyasi tashkil etilgani esa ilmning eng murakkab ekologik muammolarga yuzlanayotganini ko‘rsatadi. Mo‘ynoq markazidan 65 kilometr uzoqda joylashgan ushbu hududda Orolbo‘yi muammolarining ilmiy yechimiga qaratilgan 21 ta amaliy va innovatsion loyiha boshlandi.

Sho‘rlanish, chang-tuz bo‘roni, o‘simlik qoplami, suv va aholi salomatligi bilan bog‘liq masalalarni kabinetda turib emas, bevosita tabiiy laboratoriyaning o‘zida o‘rganish imkoni paydo bo‘ldi.

Milliy innovatsion tizimdagi o‘zgarishlar xalqaro e’tiroflarda ham aks etmoqda. Jahon intellektual mulk tashkilotining 2025-yilgi Global innovatsion indeksida O‘zbekiston 139 mamlakat orasida 79-o‘rinni egallab, o‘z tarixida ilk bor yetakchi 80 talikka kirdi. Tashkilot mamlakatimizni mehnat unumdorligi o‘sishi bo‘yicha 6-o‘rin, biznes muhitining qulayligi bo‘yicha 9-o‘rin, fan va muhandislik yo‘nalishlari bitiruvchilari ulushi bo‘yicha 13-o‘rin hamda ta’lim xarajati bo‘yicha 24-o‘rinda qayd etdi.

Bu esa mamlakatimizda inson kapitali va tadbirkorlik muhiti kuchayayotganini ko‘rsatmoqda. Endi bu ustunliklarni yuqori texnologiyali eksport, ilmiy patentlar, xususiy sektorning tadqiqotga sarmoyasi va universitet-sanoat hamkorligidagi barqaror natijalarga aylantirish talab etiladi.

Ilmiy maqola patentga, patent ishlanmaga, ishlanma esa raqobatbardosh mahsulotga aylanishi uchun universitet, ilmiy tashkilot, korxona va investor o‘rtasida uzluksiz zanjir ishlashi shart. 2026-yilda qabul qilingan yangi chora-tadbirlar aynan shu sifat bosqichini nazarda tutadi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini “5 T — ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoriylashtirish va tizimli takomillashtirish” tamoyili asosida rivojlantirish belgilandi.

“U 10 — O‘zbekistonning global ilg‘or universitetlari” dasturi doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilishi, ular atrofida mahalliy va xorijiy universitetlar, ilmiy tashkilotlar hamda sanoat korxonalarini birlashtiradigan ilmiy klasterlar tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Bu yondashuv universitetni faqat diplom beradigan muassasadan yangi bilim, texnologiya va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan markazga aylantirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik — o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi. Ma’rifiy va texnologik mustaqillik esa mamlakat muammolariga o‘z olimlari, muhandislari va tadbirkorlari bilan yechim topish imkoniyatidir.

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekiston ana shu imkoniyatning huquqiy asosi, infratuzilmasi va inson kapitalini barpo etdi. Oldinda esa yanada mas’uliyatli vazifa turibdi: yaratilgan imkoniyatlarni jahon darajasidagi ilmiy natijaga, milliy iqtisodiyot uchun raqobat ustunligiga va har bir inson hayotida seziladigan farovonlikka aylantirish.

Ajdodlarimiz ma’rifatni ozodlikka eltuvchi yo‘l deb bilgan. Bugun biz bu yo‘lning zamonaviy davomini laboratoriyada, universitet auditoriyasida, muhandislik maktabida va Yoshlar texnoparklarida ko‘rmoqdamiz.

Zero, kelajak kutilmaydi. U bilim, jasorat va yaratuvchanlik bilan har kuni bunyod etiladi. Yangi O‘zbekistonning eng katta innovatsiyasi ham, aslida, o‘z kuchiga ishongan va kelajakni o‘zi barpo etayotgan yangi avloddir.



Xalqaro turnir



TERAN TAFAKKURNING 64 NUQTASI

O‘zbek shaxmatchilari Samarqanddagi olimpiadani ASOSIY FAVORITLARDAN BIRI SIFATIDA BOSHLAMOQDA

Chennaydagi xalqaro shaxmat olimpiadasida 14-raqam ostida harakat qilgan O‘zbekiston terma jamoasining bosh sovrinni qo‘lga kiritishi jahon shaxmatida kuchlar nisbati va dinamikasi o‘zgarganini ko‘rsatib bergan edi. Bu safargi musobaqa esa mamlakatimiz mezbonligida o‘tkazilayotgani sababli milliy terma jamoamizga yuklangan mas’uliyat ko‘lami ham, unga talab ham o‘zgargan.



Taktik ustunlikka ega birinchi jamoamiz musobaqani 3-raqam ostida boshladi. Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tahlilchilarining O‘zbekistonni asosiy favoritlar sirasiga kiritishi jamoaning so‘nggi yillardagi barqaror natijalari hamda tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq. Samarqandda start olgan ushbu musobaqa jamoamiz uchun Chennaydagi g‘alabaning tasodifiy emasligini amalda tasdiqlash va professional mahoratni amaliy sinovdan o‘tkazish bosqichidir.

15-sentabr kuni Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi boshlandi. Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” majmuasida olimpiadaning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini o‘qib eshittirdi.

27-sentabrga qadar davom etadigan mazkur musobaqa tarixda ilk bor Markaziy Osiyoda o‘tkazilmoqda. Mezbon sifatida O‘zbekiston birvarakayiga uchta erkaklar terma jamoasini — jami 15 shaxmatchini bahslarga tushirdi. Asosiy jamoa 3-raqam ostida saralandi va yana medallarga da’vogarlar qatoridan joy oldi. Uning tarkibida 2022-yilda Chennay olimpiadasida oltin medalni qo‘lga kiritgan to‘rt shaxmatchi bor: Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev va Shamsiddin Vohidov. Ikkinchi va uchinchi jamoalar safida esa ham tajribali grossmeysterlar, ham yangi avlod vakillari dona suradi.

Xo‘sh, nega O‘zbekistonda uchta jamoa bor? Odatda har bir milliy federatsiya olimpiadada bitta jamoa bilan qatnashadi. Biroq mezbonlar uchun bu qoidadan istisno ko‘zda tutilgan. FIDE qoidalariga ko‘ra, musobaqani tashkil etuvchi federatsiya ikkinchi — B jamoasini qo‘yish huquqiga ega. Agar ishtirokchi jamoalarning umumiy soni toq bo‘lib qolsa, mezbonlar uchinchi — C jamoasini ham qo‘shishi mumkin. Agar uchinchi tarkib birinchi turdayoq o‘ynagan bo‘lsa, keyinchalik qaysidir jamoalar musobaqadan chiqib ketishi yoki qo‘shilishidan qat’i nazar, u turnir oxirigacha qoladi.

Samarqand olimpiadasida O‘zbekiston barcha uch tarkib bilan namoyon bo‘ldi. Birinchi terma jamoa saralashda 3-raqamni oldi (jamoaning o‘rtacha reytingi bo‘yicha), Uzbekistan 2 — 31-o‘rinda, Uzbekistan 3 esa 55-o‘rinda qayd etilgan.

Birinchi terma jamoaning o‘rtacha reytingi — 2720. Sardor — o‘zbek shaxmati afsonasi Rustam Qosimjonov.

— Kuchli jamoalar juda ko‘p: Polsha, Germaniya, Serbiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, — deydi Rustam Qosimjonov tayyorgarlik jarayoni, doskalar taqsimoti, raqiblar va terma jamoaning oltin medal olish imkoniyatlari haqida to‘xtalib. — Osiyo jamoalari ichida odatdagidek Eron jamoasi kuchli. Turkiyaning tarkibi ham juda yosh va imkoniyatlari yuqori. An’anaga ko‘ra, Ozarbayjon — kuchli jamoa. Olimpiadalarda odatda Armaniston ham jiddiy raqib hisoblanadi. Bularning barchasi kuchli uchlik-to‘rtlikka kirmaydigan jamoalar. Ammo ularning bari nihoyatda kuchli. Bundan tashqari, asosiy “og‘ir vaznlilar” bor. Bu to‘rtlik — Xitoy, AQSH, Hindiston va O‘zbekiston. Aslida, turli odamlar ularni turlicha tartibda baholashadi. Olimpiada hech kim uchun oson bo‘lmaydi.

2022-yilgi olimpiadada O‘zbekistonga tarixiy oltinni keltirgan beshlikdan Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev va Shamsiddin Vohidov yana asosiy tarkibda bahslashmoqda. O‘sha jamoaning beshinchi a’zosi Jahongir Vohidov endilikda Uzbekistan 2 tarkibiga kiritilgan, uning asosiy beshlikdagi o‘rnini esa 19 yoshli Muhiddin Madaminov egalladi. 2022-yilda O‘zbekiston barcha 11 turni jamoaviy mag‘lubiyatsiz yakunlagan edi. Ikki yil o‘tib, deyarli shu tarkibdagi terma jamoa Budapesht olimpiadasining bronza medaliga sazovor bo‘ldi. O‘shanda Shamsiddin Vohidov to‘rtinchi doskada qo‘shimcha ravishda yakkalik oltin medalini, Nodirbek Abdusattorov esa birinchi doskada kumush medalni qo‘lga kiritgandi.

Jamoaning ushbu muvaffaqiyatlari zamirida har bir doska sohibining o‘ziga xos o‘yini, mukammallashib borayotgan taktikasi va oxirgi yillarda erishgan individual natijalari yotadi. Bu natijalar va o‘sish sur’atini har bir shaxmatchi misolida alohida ko‘rib chiqish mumkin.

Nodirbek ABDUSATTOROV



2021-yilning dekabrida 17 yoshli Abdusattorov rapid bo‘yicha jahon chempioni bo‘ldi. Turnir davomida u, jumladan, Magnus Karlsenni mag‘lub etdi, birinchilik uchun kurashda esa Karlsen, Fabiano Karuana va Yan Nepomnyashiyni ortda qoldirdi. Chempion nomi tay-breykda aniqlandi va unda hamyurtimiz Nepomnyashiydan ustun keldi.

Keyingi yozda Abdusattorov Chennaydagi olimpiadada g‘alaba qozongan terma jamoaning birinchi doskasida o‘ynadi. U 11 ta partiyadan 8,5 ochko jamg‘arib, 2803 ko‘rsatkichdagi performans qayd etdi va birinchi doskaning shaxsiy hisobida kumush medalga ega chiqdi.

2024-yilda Budapeshtda o‘tgan olimpiadada ham u terma jamoa yetakchisi sifatida musobaqani bronza bilan yakunlashga yordam berdi va yana shaxsiy kumush medalni oldi. 2026-yil fevralida Abdusattorov dunyoning eng nufuzli turnirlaridan biri — Veyk-an-Zeyedagi Tata Steel Masters musobaqasida bosh sovrinni qo‘lga kiritdi. Keyinroq u London Chess Classic superturniri va Prague International Chess Festival da g‘olib chiqdi.

Nodirbek YOQUBBOYEV



Yoshi 24 da bo‘lishiga qaramay, Yoqubboyev hozirgi jamoaning eng tajribali vakillaridan biri. U 2016, 2018 va 2020-yillarda O‘zbekiston chempioni bo‘lgan, 2025-yilning aprelida esa to‘rtinchi bor mamlakat birinchiligida g‘olib chiqdi. So‘nggi chempionat finalida u Ortiq Nigmatovni taslim etgandi.

2022-yilgi olimpiadada Yoqubboyev ikkinchi doskada dona surib, 11 imkoniyatdan 8 ochko to‘pladi (performans reytingi 2759). Jamoaviy oltin bilan birga u o‘z doskasida shaxsiy bronza medalni ham qo‘lga kiritdi.

Shaxsiy turnirlardagi eng yirik natijalaridan biri 2025-yilgi jahon kubogida qayd etildi. Yoqubboyev yarim finalgacha yetib borib, Sindorov bilan to‘qnashdi. Klassik partiyalar durang bilan yakunlandi, tay-breykda esa Sindorov ustun keldi. Uchinchi o‘rin uchun bahsda Yoqubboyev Andrey Yesipenkoga imkoniyatni boy berib, yakunda 206 ishtirokchi orasida 4-o‘rinni egalladi.

Yaqinda Toshkentda Yoqubboyev Eron terma jamoasi yetakchisi, dunyoning top 15 taligiga kiruvchi Amin Tabatabaiy bilan bahsda g‘alaba qozondi. Onlayn reytingda esa u super grossmeysterlik mezoni bo‘lmish 2700 ga yaqinlashib qoldi.

Javohir SINDOROV



Olimpiya oltinidan keyingi to‘rt yil davomida Sindorov yosh terma jamoaning navqiron iste’dodidan jahon chempionligiga rasmiy da’vogar darajasigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Tayyorgarligi, xalqaro turnirlardagi ishtiroki hamda murabbiylar bilan ishlashi uning taktik hushyorligini sovuqqon strategik aniqlik bilan to‘ldirishga xizmat qildi. Har bir partiyada chuqur nazariy tayyorgarlikni psixologik matonat bilan birlashtirgan shaxmatchi eng hayajonli lahzalarda ham o‘yin tizginini o‘z qo‘lida ushlab turishni o‘rgandi. Natijada shaxsiy xarakterdagi bunday sifat o‘zgarishi uni oddiy iqtidorli grossmeysterdan zamonaviy shaxmat elitasi safida har qanday cho‘qqini zabt etishga qodir yetakchiga aylantirdi.

U grossmeysterlik unvonini 2018-yildayoq — 12 yoshida qo‘lga kiritib, tarixdagi eng yosh grossmeysterlardan biriga aylangandi. Shuningdek, Sindorov 2019 va 2021-yillarda ikki karra O‘zbekiston chempioni bo‘lgan. Asosiy yuksalish 2025-yilda yuz berdi. Sindorov Goada o‘tkazilgan FIDE jahon kubogi finalida xitoylik Vey Ini mag‘lub etib, bosh sovrinni qo‘lga kiritdi va turnir tarixidagi eng yosh g‘olib bo‘ldi. Yarim finalda esa u terma jamoadagi sherigi Nodirbek Yoqubboyevdan ustun kelgandi.

Jahon kubogidagi g‘alaba uni 2026-yilgi nomzodlar turniriga olib chiqdi. U yerda Sindorov musobaqa tugashiga bir tur qolgandayoq 1-o‘rinni naqd qildi va amaldagi jahon chempioni Dommaraju Gukeshga qarshi jahon shaxmat toji uchun o‘yin o‘tkazish huquqiga ega bo‘ldi. Sentabr oyiga kelib, Sindorov o‘z reytingini 2778 ga yetkazdi va dunyoning eng kuchli shaxmatchilari orasida 4-o‘rinni egallab turibdi.

> **“ Ayni kunlarda Samarqand o‘zida butunjahon shaxmati energiyasini jamlab, global aql-idrok markaziga aylanmoqda. Allaqachon bu yerda nogironligi bo‘lgan insonlar o‘rtasidagi uchinchi FIDE olimpiadasi rekord darajadagi 41 ta jamoa ishtirokida o‘tkazilmoqda.**

Shamsiddin VOHIDOV



Vohidov katta sahnada ilk bor o‘smirlar shaxmatida porlagan: 2015-yilda u 14 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida jahon chempionligiga erishdi. Oradan uch yil o‘tib, o‘zbekistonlik 16 yoshli shaxmatchi rapid bo‘yicha jahon chempionatida Magnus Karlsenni dog‘da qoldirdi.

2023-yilda u shaxsiy faoliyatidagi eng katta muvaffaqiyatlardan biriga erishdi: klassik shaxmat bo‘yicha Osiyo chempioni bo‘ldi. Olmaotadagi musobaqada Vohidov 9 imkoniyatdan 7 ochko jamg‘arib, eng yaqin ta’qibchilarini yarim ochko ortda qoldirgan holda yakkapeshqadam bo‘ldi. 2024-yilgi olimpiada esa uning faoliyatidagi eng yorqin musobaqalardan biriga aylandi. Vohidov O‘zbekistonga jamoaviy bronzani taqdim etish bilan birga to‘rtinchi doskada shaxsiy oltin medalni ham qo‘lga kiritdi.

Muhiddin MADAMINOV



Madaminov — terma jamoa safida kattalar olimpiadasida qatnashmagan yagona shaxmatchi. U 2024-yilda grossmeysterlik unvonini olgan bo‘lsa, keyingi ikki mavsum ichida 2600 lik dovonga yaqinlashib keldi. 2023-yildayoq 2431 reytingga ega xalqaro master bo‘lgan Madaminov Osiyo chempionatida 9 partiyadan 6 ochko jamg‘arib, 8-o‘rinni egallagan edi.

Eng ulkan muvaffaqiyatiga u 2026-yil yozida erishdi. Madaminov UzChess Cup Masters musobaqasining eng kuchli guruhida zafar quchdi. To‘qqiz turdan so‘ng u Vohidov bilan 1-o‘rinni bo‘lishib oldi, so‘ngra tay-breykdagi har ikkala partiyada ham g‘alaba qozondi. Turnirda Nodirbek Abdusattorov, Arjun Erigaysi, Yan Nepomnyaщiy, Shahriyor Mamedyarov va boshqa mashhur grossmeysterlar ham bahs olib borgan edi. FIDE bu g‘alabani Madaminov faoliyatidagi eng katta yutuq deb atadi.

Shuningdek, u jahon kubogi va nomzodlar turnirida Javohir Sindorovning sekundanti (grossmeysterning partiyalarga tayyorlanuvchi yordamchisi va tahlilchisi) sifatida ham ishlagan. Shu tariqa kattalar olimpiadasi tajribasi nuqtayi nazaridan eng yosh va eng kam tajribaga ega bo‘lgan jamoa a’zosi Samarqanddagi bahslarga o‘z faoliyatidagi eng yuqori sport natijasi bilan kirib kelmoqda.

Ikkinchi terma jamoa 2532 o‘rtacha reytingga ega va saralashda 31-o‘rinni egallagan. Jamoa sardori — O‘zbekiston shtabidagi eng tajribali mutaxassislardan biri bo‘lgan ukrainalik grossmeyster Pavel Elyanov. Ukraina terma jamoasi tarkibida u ikki marta — 2004 va 2010-yillarda shaxmat olimpiadasida g‘olib bo‘lgan.

Uchinchi terma jamoaning o‘rtacha reytingi — 2424, saralash raqami — 55. Qozog‘istonlik grossmeyster Murtas Kajgaleyev jamoa sardori sifatida qayd etilgan. Ushbu terma jamoaning har birida xalqaro yoki o‘smirlar o‘rtasidagi musobaqalarda qo‘lga kiritilgan yutuqlar mavjud.

Ayollar seksiyasida asosiy favoritlar doirasi bir oz boshqacharoq. Birinchi raqam ostida amaldagi chempion Hindiston qayd etilgan bo‘lsa, undan keyin Gruziya, Xitoy, Qozog‘iston va AQSH bormoqda. Shuningdek, Ukraina va Ozarbayjon terma jamoalariga qarshi bahslar ham oson kechmaydi.

Ayniqsa, Qozog‘iston alohida e’tiborga loyiq. O‘tgan olimpiadada jamoa kumush medalga ega chiqib, ayollar turniri tarixidagi ilk medalini qo‘lga kiritgan edi. O‘shandan buyon jamoaning yosh yetakchilari yanada kuchaydi, shu bois, ulardan kamida avvalgi yuqori natijani takrorlashni kutish mumkin. Birinchi doskada Bibisara Asaubayeva, keyingi doskalarda esa Alua Nurman, Meruyert Kamalidenova, Elnaz Kaliaxmet va Zarina Nurgaliyeva bahs olib boradi.

Biroq 13-start raqamiga ega O‘zbekiston birinchi ayollar terma jamoasining ham muhim o‘rinlar uchun kurashish imkoniyati ancha yuqori. Jamoa safidan Afro‘za Hamdamova, Gulruhbegim Tohirjonova, Umida Omonova, Nilufarxon Imomqo‘ziyeva va Guldona Karimova joy olgan.

Birinchi ayollar terma jamoasiga mamlakatning eng taniqli shaxmatchilaridan biri, ko‘p yillar davomida O‘zbekiston sharafini xalqaro musobaqalarda himoya qilgan Nafisa Mo‘minova sardor hisoblanadi.

— Ilgari bunday sharoitlar bo‘lmagan, ayni paytda qizlarda to‘laqonli tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha imkoniyatlar va qo‘llab-quvvatlov mavjud, — deydi Nafisa Mo‘minova. — Qizlar stipendiya olmoqda, turnirlardagi ishtiroki, murabbiylar va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mutaxassis xizmatlari to‘lab berilyapti. Ularga faqat shaxmatga diqqatni qaratish qoldi, xolos. Bundan tashqari, tashkiliy tashvishlarning barchasi ularning yelkasidan olindi: turnirlarga ro‘yxatdan o‘tish, chiptalar xarid qilish, yo‘nalishlarni rejalashtirish, tashkilotchilar bilan muzokaralar o‘tkazish va mehmonxona topish kabi ishlar bilan maxsus hamrohlik guruhi shug‘ullanmoqda. Jamoa uchun o‘ynaganda mas’uliyat ancha yuqori bo‘ladi. Olimpiadalarda men birinchi doskalarda o‘ynaganman va yetakchi sifatida buni doim juda teran his qilganman. Asosiysi, o‘z taxtangni mustahkam ushlab turish.

Shaxmat olimpiadasi — mazkur sport turidagi eng muhim jamoaviy musobaqa. U har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Har bir jamoa to‘rt asosiy va bir zaxira o‘yinchisidan iborat bo‘ladi.

Vaqt nazorati dastlabki 40 ta yurish uchun 90 daqiqani tashkil etadi, shundan so‘ng o‘yinchiga yana 30 daqiqa qo‘shib beriladi. Birinchi yurishdan boshlab har bir amalga oshirilgan yurish uchun 30 soniyadan qo‘shib boriladi. Matchdagi g‘alaba uchun jamoaga ikki ochko, durang uchun bir ochko beriladi. 11 tur davomida eng ko‘p match ochkosi jamg‘argan jamoa g‘olib deb topiladi. Ochkolar teng kelib qolgan taqdirda qo‘shimcha ko‘rsatkichlar tizimi ishga tushadi — Berger koeffitsiyenti (raqiblar to‘plagan ochkolar miqdori) hamda jamoaning har bir a’zosi to‘plagan individual ochkolar yig‘indisi hisobga olinadi.

Bundan oldin Samarqand rapid va blis bo‘yicha jahon chempionati hamda Grand Swiss turniriga mezbonlik qilgan, biroq olimpiada ko‘lami jihatidan ushbu yirik musobaqalardan ham ancha ustun turadi.

Dastlabki olti tur 16-sentabrdan 21-sentabrga qadar har kuni soat 15:00 da boshlanadi. 23-sentabrdan 26-sentabrgacha 7-turdan 10-turgacha bo‘lgan bahslar o‘tkaziladi. So‘nggi, hal qiluvchi 11-tur esa 27-sentabr kuni bo‘lib o‘tadi va odatdagidan ertaroq — soat 11:00 da boshlanadi.

Ayni kunlarda Samarqand o‘zida butunjahon shaxmati energiyasini jamlab, global aql-idrok markaziga aylanmoqda. Allaqachon bu yerda nogironligi bo‘lgan insonlar o‘rtasidagi uchinchi FIDE olimpiadasi rekord darajadagi 41 ta jamoa ishtirokida o‘tkazilmoqda. Asosiy olimpiada kunlarida FIDE kongressi va saylovi, 24-sentabrda esa shaxmat ta’limiga bag‘ishlangan sammit ham tashkil etiladi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati jamoasi bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari Nosirjon Jo‘rayevga farzandi

Shohidbek JAMOLIDDINOVning

bevaqt vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60